

«Tasdiqlangan»

2023-yil «26» iyundagi bank
Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining
AS-1-sonli bayonnomasi

Kengash Raisi

J.H.Karshibayev



«Ro'yxatga olingan»

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

2023-yil «1»-abrycm
8-son

Raisining birinchi o'rinnbosari

N.N.Saydullayev



**«TURONBANK» AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
USTAVI**
(yangi tahriri)

Toshkent – 2023-yil

«TURONBANK» AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

U S T A V I

(yangi tahriri)

MUNDARIJA

I. UMUMIY QOIDALAR	3
II. BANKNING MAQSADI VA FAOLIYAT SOHASI	4
III. BANK OPERATSIYALARI.....	5
IV. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.....	7
V. BANKNING USTAV KAPITALI, AKSIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI, BOSHQA VOSITALARI	10
VI. AKSIYADORLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI	14
VII. MINORITAR AKSIYADORLAR.....	16
VIII. DIVIDENDLAR	17
IX. BANK BOSHQARUV ORGANLARI.....	18
X. TARKIBIY TUZULMA	43
XI. BANK ICHKI AUDIT XIZMATI VA AUDIT	44
XII. BANKNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH	44
XIII. BANK USTAVIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH....	46

«Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, «Turon» konsolidatsiya tijorat bankini (muassislarining 1990-yil 6-oktyabrdagi ta'sis yig'ilishi qaroriga binoan ochilgan va 1990-yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat bankida 713/8-son bilan ro'yxatga olingan) qayta tashkil etish yo'li bilan tashkil topgan va 1998-yil 20-oktyabrdagi qayta ro'yxatga olingan.

Bank O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarmog'ini modernizatsiya qilish va rivojlantirishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida tashkil qilingan.

I.UMUMIY QOIDALAR

1. «Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra aksiyadorlik jamiyatidir.

Bankning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq va qisqartirilgan firma (rasmiy) nomi:

o'zbek tilidagi to'liq nomi
kirill yozuvi asosida –

«Туронбанк» акциядорлик
тижорат банки

o'zbek tilidagi qisqartirilgan nomi
kirill yozuvi asosida –

«Туронбанк» АТБ

o'zbek tilidagi to'liq nomi
lotin yozuvi asosida –

«Turonbank» aksiyadorlik
tijorat banki

o'zbek tilidagi qisqartirilgan nomi lotin
yozuvi asosida –

«Turonbank» ATB

rus tilidagi to'liq nomi –

Акционерный коммерческий
банк «Туронбанк»

rus tilidagi qisqartirilgan nomi –

АКБ «Туронбанк»

ingliz tilidagi to'liq nomi –

Joint-stock commercial bank
«Turonbank»

ingliz tilidagi qisqartirilgan nomi –

JSCB «Turonbank»

2. Bank o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlari, shuningdek mazkur Ustavga amal qiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bank aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yuridik shaxs bo‘lib, o‘zining shaxsiy mulkiga ega, o‘z majburiyatlari bo‘yicha javobgar, o‘z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi va ularni yuritishi, majburiyatlarni bo‘yniga olishi mumkin, sudda da’vogar va javobgar sifatida ishtirok etish huquqiga ega. Bank o‘z mustaqil balansiga ega bo‘lib, foyda-xarajat va o‘zini-o‘zi moliyalashtirish asosida faoliyat yuritadi.

4. Bankning faoliyat muddati cheklanmagan bo‘lib, u o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki litsenziyası asosida amalga oshiradi.

5. Bank o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklini ko‘rsatuvchi to‘liq va qisqartirilgan yuridik nomiga, emblemasiga, tovar belgisiga, shuningdek o‘zining to‘liq firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilgan hamda manzili davlat tilida qayd etilgan dumaloq shakldagi muhriga ega. Bankning dumaloq muhrida qo‘srimcha ravishda Bankning boshqa tildagi nomi va uning emblemasi bo‘lishi mumkin. Bank, shuningdek, o‘z nomi, logotipi va boshqa vizual identifikatsiya vositalariga ega bo‘lgan shtamp va blanklarga ega bo‘lishga haqli.

6. Umumi yig‘ilish, Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi qarorlari qat’iyan ushbu Ustavga muvofiq qabul qilinishi lozim. Bank Ustavi qoidalari bilan Aksiyadorlarning umumi yig‘ilishi, Bank Kuzatuv Kengashi, Boshqaruvi qarorlari asosida tasdiqlangan Bankning ichki hujjatlari o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu Ustav ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi.

7. Bankning joylashgan joyi (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 4 «A»-uy.

Bankning elektron pochta manzili: E-mail: info@turonbank.uz.

Bankning rasmiy veb-sayti: www.turonbank.uz.

II. BANKNING MAQSADLARI VA FAOLIYAT SOHASI

8. Bankning faoliyat sohasi Bank aksiyadorlariga foyda to‘lanishini ta’minlash maqsadida o‘zining va jalb etilgan mablag‘lardan foydalanishdan daromad olish asosida bank faoliyatini amalga oshirish, shuningdek u bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishdan iborat.

O‘z faoliyati maqsadlariga erishish uchun Bank quyidagi asosiy faoliyat sohasi bilan shug‘ullanadi:

- bank xizmatlari bozorini rivojlantirish hamda ichki va tashqi bozorlarda yuridik va jismoniy shaxslarning o‘sib borayotgan bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish;

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o‘rtasida hisob-kitoblarning yaxshilanishiga ko‘maklashish hamda zamonaviy texnik vositalar va bank texnologiyalaridan foydalangan holda to‘lov intizomini va o‘zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash;

- jalb qilingan mablag‘larning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, ularni xalqaro standartlar darajasigacha yetkazish, texnologiyalar va modifikatsiyalarning yangi turlarini joriy etgan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish;

- kreditlash orqali iqtisodiy salohiyatning rivojlanishiga va respublika iqtisodiyotining turli sohalarida ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarining joriy etilishiga ko‘maklashish;

- Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larni ishonchli foydali investitsiyalarga joylashtirish orqali omonatchilarning omonatlari saqlanishini ta'minlash yo'li bilan ularning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari doirasida boshqa bank faoliyatini amalga oshirish.

9. Bank asosiy faoliyatiga xos bo'Imagan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish, raqobat rivojlangan sohada asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish, asosiy faoliyatiga xos bo'Imagan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish yoki undagi ulushni sotib olish taqiqlanadi.(Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno)

III. BANK OPERATSIYALARI

10. Bank o'z faoliyatini mazkur Ustav hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyalarga amal qilgan holda yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish, qabul qilingan mablag'lardan tavakkalchilik asosida kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalananib, ular bo'yicha to'lovlar va boshqa bank xizmatlarini tijorat asosida amalga oshiradi.

11. Operatsiyalarni amalga oshirish va pul mablag'larini saqlash uchun Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking Hisob-kitoblar markazida va boshqa banklarida vakillik hisobvaraqlarini ochadi.

12. Bank tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb qilish;
- to'lovlni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish;
- kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;
- chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
- jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnomaga asosan mol-mulkni ishonchli boshqarish;
- inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;
- uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;
- uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini sotib olish (faktoring);
- qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
- affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'Imagan) hisobvaraqlarini yuritish;
- qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;
- hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga

oshirish;

- hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus xonalarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijara berish;
- lizing berish;
- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;
- moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;
- aktivlar portfelini boshqarish;
- elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va so'ndirish;
- bank kartalarini berish va to'lovlariga ishllov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya muassasalari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish.

13. Bank, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko'rsatilgan boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

14. Bank aholi, korxonalar, tashkilotlar, kredit-moliya muassasalari, shu jumladan norezidentlarning bo'sh pul mablag'larini jalb etadi, ularni talab qilib olinguncha depozit, jamg'arma, muddatli depozit hisobvaraqlarida, shuningdek, boshqa turdag'i depozit va majburiyatlar hisobvaraqlarida saqlaydi.

15. Bank qabul qilingan mablag'larning but va daxlsiz saqlanishini ta'minlaydi.

16. Bank korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi, muddatliligi sharti bilan milliy yoki chet el valyutasida taqdim etadi.

17. Bank amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq loyihalarni davlat byudjeti mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobidan moliyalashtirishi mumkin.

18. Bank tomonidan beriladigan kreditlar, qoida tariqasida, qarz oluvchi yoki uchinchi shaxsga tegishli bo'lgan, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulk garovi, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa shakllardagi kafolatlar, kafilliklar va majburiyatlar bilan ta'minlanadi. Kreditlash shartlari Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Ushbu kafolatlar, kafilliklar, majburiyatlarning yetarliligi Bank tomonidan uning kredit siyosatini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talab va tavsiyalarini hisobga olgan holda belgilanadi.

19. Amalga oshirilishi uchun qonunchilikka muvofiq alohida ruxsatnomalar olinishi talab etiladigan faoliyat banklar tomonidan tegishli hujjatlar olinganidan keyin amalga oshiriladi. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

20. Ushbu Ustavning 19 bandida ko'rsatilgan cheklov quyidagi holatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimlarida foydalaniladigan ixtisoslashtirilgan uskunani va unga doir dasturiy ta'minotni sotish yoki ijara berish;
- o'z aktivlarini sotish;
- chek daftarchalarini chiqarish, sotish va tarqatish;
- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan sug'urta tashkilotlari

nomidan sug'urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish;

- bank o'zi muassis bo'lgan yuridik shaxslarga o'z mol-mulkini mulkiy ijara (arenda) shartnomasiga muvofiq ijaraga berish.

IV. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

21. Bank moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda mustaqildir.

22. O'z faoliyatini amalga oshirishda Bank quyidagi huquqlarga ega:

22.1. omonatlar va beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil ravishda belgilash;

22.2. O'z faoliyatini, shuningdek bank-moliya xizmatlarini mustaqil amalga oshirish;

22.3. bank va moliyaviy xizmatlar bozorida ishtirok etishning rivojlanish strategiyasi va dasturlarini tanlash, shuningdek kredit, investitsiya, dividend, emissiya va boshqa siyosatlarni mustaqil belgilash va amalga oshirish;

22.4. O'z faoliyatidan cheklanmagan foyda olish va barcha xarajatlar qoplangandan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin qolgan foydani o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish;

22.5. Belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

22.6. Boshqa tijorat banklaridan banklararo depozitlar va kreditlarni shartnoma asosida jalg qilish va joylashtirish;

22.7. Hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar markazlari va boshqa banklarda xorijiy valyutada ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirish;

22.8. Mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun komissiya miqdorini mustaqil ravishda belgilash;

22.9. Barcha soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan keyin bank ixtiyorida qolgan sof foyda hisobidan zaxira va jamg'armalarni yaratish;

22.10. O'z vakolatlari doirasida mustaqil ravishda bitimlar va boshqa huquqiy harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan, mulkni sotib olish yoki sotish, hamkorlikdagi faoliyat, ijara, buyurtmalar, komissiyalar, saqlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasida va xorijda ko'rgazmalar, tenderlar, tanlovlар, konferentsiyalar, simpoziumlarda ishtirok etish;

22.11. Tuzilgan shartnomalarga, shuningdek amaldagi qonunchilik hujjalari muvofiq o'z majburiyatlarining bajarilishini mijozlardan belgilangan tartibda talab qilish;

22.12. Bank xodimlarining mehnatiga haq to'lash shakllari, tizimi, tartibi va miqdorini mustaqil ravishda belgilash;

22.13. Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarni ekologik va ijtimoiy ekspertizadan o'tkazish;

22.14. Kreditlangan korxona va tashkilotlardan ularning to'lov qobiliyatini tasdiqlovchi hisobotlar, qoldiqlar va hujjalarni, shuningdek taqdim etilgan va berilgan kreditlar ta'minotini olish;

22.15. Qonunda nazarda tutilgan hollarda homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshirish;

22.16. Moliyalashtiriladigan obyektlarni qurish, kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha loyiha yechimlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish;

22.17. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda pul majburiyatlarini bajarmaganligi sababli korxona va tashkilotlarni bankrot deb topish to'g'risida ariza berish;

22.18. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida filiallar tashkil etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan respublikadan tashqarida shu'ba banklar, filiallar va vakolatxonalar ochish. Bank o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, manfaatlarini himoya qilish va qo'shma dasturlarni amalga oshirish uchun ittifoqlar, uyushmalar va boshqa birlashmalarda ishtirok etishi mumkin;

22.19. Litsenziyada, ushbu Ustavda nazarda tutilgan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirish;

22.20. To'lov hujjati funksiyasini bajaruvchi qimmatli qog'ozlarni, pul mablag'larini omonatlarga va bank hisobvaraqlariga jalb qilinganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobga olish, saqlash va ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek qimmatli qog'ozlarni ishonchli boshqarish, yutuqli omonotlar e'lon qilib ularning sharti bo'yicha tadbirlarni o'tkazish;

22.21. Bank mijozlarining valyuta operatsiyalari ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish;

22.22. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va xalqaro huquq hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa harakatlar va faoliyatni amalga oshirish va olib borish.

23. O'z mijozlari va aksiyadorlari manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

23.1. Bank tomonidan jalb etilgan pul mablag'larining bir qismi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan me'yorlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi majburiy zaxiralar fondiga o'tkazilishini amalga oshirish;

23.2. Kreditlar va lizinglar, bankning boshqa aktivlari va balansdan tashqari majburiyatları bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan miqdorda va tartibda zaxiralar yaratish;

23.3. Yo'qotishlar xavfini kamaytirish, aktivlarini diversifikatsiya qilish maqsadida o'z kapitali va likvid zaxiralarning yetarli miqdorini ta'minlash;

23.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining kassa ijrosi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish;

23.5. Garov, taqdim etilgan kafolatlar, kafilliklar va majburiyatlarning yetarlilagini hisobga olgan holda berilgan kreditlarni ta'minlashning ichki me'yoriy tartibini belgilash;

23.6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda o'z faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish;

23.7. Amaldagi bank qonunchiligi hujjatlari asosida kredit, investitsiya, dividend, emissiya va boshqa siyosatlarni, shuningdek Bankning boshqa

operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

23.8. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobi va hisobotiga doir talablarga rioya qilish;

23.9. Bankda ichki audit hamda komplaens-nazorat xizmatlari faoliyatini ta'minlash;

23.10. O'z mijozlari hamda korrespondentlarining operatsiyalari, hisobvaraqlari va depozitlarini bank siri qonunchiligiga muvofiq sir saqlanishini ta'minlash;

23.11. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash;

23.12. Tegishli organlarga hisobotlarni belgilangan muddatlar va tartiblarda taqdim etish;

23.13. Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирғи́н qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etish;

23.14. Amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiylarni bajarish.

24. Markaziy bank «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun talablariiga muvofiq Bankdan zudlik bilan zarur choralar ko'rishni talab qilishga haqli.

25. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan tartibda shubhali va umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo'yicha ularning real holatini baholash maqsadida zaxira jamg'armalari tashkil etish;

26. O'tkazilayotgan operatsiyalarning hajmi va xususiyatiga mos bo'lgan ishonchilikning yuqori darajasini ta'minlovchi ichki nazoratni tashkil qilish.

V. BANKNING USTAV KAPITALI, AKSIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI, BOSHQA VOSITALARI

27. Bank Ustav kapitali 1 484 142 425 200 (bir trillion to'rt yuz sakson to'rt milliard bir yuz qirq ikki million to'rt yuz yigirma besh ming ikki yuz) so'mni tashkil etadi va quyidagi aksiyalarga bo'lingan:

27.1. egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalar – 868 057 456 (sakkiz yuz oltmis sakkiz million ellik yetti ming to'rt yuz ellik olti) dona, nominal qiymat bo'yicha umumiy miqdori 1 475 697 675 200,00 (bir trillion to'rt yuz yetmish besh milliard olti yuz to'qson yetti million olti yuz yetmish besh ming ikki yuz) so'm;

27.2. egasining nomi yozilgan hujjatsiz imtiyozli aksiyalar – 4 967 500 (to'rt million to'qqiz yuz oltmis yetti ming besh yuz) dona, nominal qiymat bo'yicha umumiy miqdori – 8 444 750 000 (sakkiz milliard to'rt yuz qirq to'rt million yetti yuz ellik ming) so'm.

28. Bank Ustav kapitali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda Bank muassislari va aksiyadorlari tomonidan kiritilgan pul mablag'lardan yoki davlat qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi.

29. Bank Ustav kapitali faqat aksiyadorning o'z mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Qarzga olingen, ta'minlangan mablag'lardan, shuningdek majburiyat yuklatilgan boshqa mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

30. Bankning Ustav kapitali aksiyadorlar olgan bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Barcha turdag'i Bank aksiyalarining nominal qiymati bir xil bo'lib, 1700 (bir ming yetti yuz) so'mni tashkil etadi.

Bank aksiyalari egasining nomi yozilgangan hujjatsiz qimmatli qog'ozlardir. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni sotib oluvchiga sotib oluvchining depo hisobvarag'iga tegishli yozuv kiritilgan paytdan boshlab o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

31. Bank oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati qonunchilikda belgilangan darajadan oshmasligi lozim.

32. Bank Ustav kapitalini ko'paytirish maqsadida chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdori 269 502 724 (ikki yuz oltmis to'qqiz million besh yuz ikki ming yetti yuz yigirma to'rt) donani tashkil etadi, ulardan: egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalar 169 502 724 (bir yuz oltmis to'qqiz million besh yuz ikki ming yetti yuz yigirma to'rt) donani va egasining nomi yozilgan hujjatsiz imtiyozli aksiyalar 100 000 000 (yuz million) donani tashkil qiladi.

33. Bankning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali ko'paytirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar Bank tomonidan faqat Bank Ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasida joylashtirilishi mumkin. Bank ustav kapitalini ko'paytirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jalb qilingan investitsiyalar, bankning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

34. Bank tomonidan chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish amaldagi qonunchilikka va aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorga muvofiq ochiq yoki yopiq tartibda Bank Kengashi qarori bilan amalga oshiriladi. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar uchun to'lov aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan narxdan past bo'lмаган narxda amalga oshiriladi. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar uchun to'lov faqat pul ko'rinishida amalga oshiriladi. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolarida joylashtirilganda bitimlar ushbu savdo tashkilotchisining savdo qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

35. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin ularning nominal qiymatidan past bo'lмаган qiymatda joylashtiriladi.

36. O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari asosida joylashtiriladigan aksiyalar, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari va byudjet mablag'lari hisobidan joylashtiriladigan aksiyalar, shuningdek ayirboshlash tartibida joylashtiriladigan aksiyalar yopiq obuna bo'yicha amalga oshiriladi.

37. Bank aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha bank aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarning 50 foizidan kamroq'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalariga aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari borasidagi taklifini o'ttiz kun ichida e'lon qilishi shart. Aksiyadorning o'ziga tegishli aksiyalarni sotishi to'g'risidagi yozma roziligi u e'lon qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida olingan taqdirda, bankning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olishi shart.

38. Bank tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayriboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergen yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayriboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagи aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi bank aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

39. Jismoniy va yuridik shaxslar yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar, shu jumladan norezidentlar bir yoki bir necha bitim natijasida bankning ustav kapitalidagi:

- besh va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan yigirma foizni;
- yigirma va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan ellik foizni;
- ellik va undan ko'proq foizni tashkil etadigan ulushni bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

40. Nerezident bo'lgan jismoniy shaxslarning va xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo'limgan yuridik shaxslarning jami ulushi bank ustav kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

41. Quyidagilar Bank aksiyalariga egalik qilishlari mumkin emas:

- imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor etishni hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazishda axborot taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatda va hududda yashaydigan nerezident bo'lgan jismoniy shaxslar hamda shunday davlatda ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, aksiyadorlar (ishtirokchilar), oxirgi benefitsiar mulkdorlar;

- qaysi nerezidentlarning ishtirokchilari (aksiyadorlari) hamda oxirgi benefitsiar mulkdorlari imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor etishni hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish chog'ida axborot taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatda yoki hududda ro'yxatga olingan bo'lsa, o'sha nerezidentlar.

42. Agar bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish talab etilsa, bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun berilgan ariza Markaziy bank tomonidan monopoliyaga qarshi organning qarorini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi.

43. Shaxs o'ziga bog'liq bo'limgan holatlarda bankning aksiyalarini qonunchilikda belgilangan hajmda olganda Markaziy bank ruxsatnomasini olish talab qilinadi. Shaxs o'ziga bog'liq bo'limgan holatlarda bankning aksiyalarini olgan kundan e'tiboran Markaziy bank tomonidan tegishli qaror qabul qilinadigan kunga qadar aksiyalar egasining huquqlari to'xtatib turiladi.

44. Aksiyador o'ziga bog'liq bo'limgan holatlarda bank aksiyalarini olgan kundan e'tiboran oltmisht kun ichida Markaziy bankning ruxsatnomasini olish uchun ariza taqdim etishi kerak. Aksiyador tomonidan ariza taqdim etilmagan

taqdirda, o'ziga bog'liq bo'limgan holatlarda olingen bank aksiyalari olingen kundan e'tiboran uch oy ichida begonalashtirilishi lozim.

45. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiyligi sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Bank tomonidan aksiyalarni sotib olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

46. Bankning Ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini muomaladan chiqarib olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

47. Bankning Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va Bank Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

48. Bankning Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi Ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

49. Bank o'z aksiyalarini sotib olish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Bank tomonidan sotib olinadigan o'z aksiyalarining miqdori bank Ustav kapitalining o'n foizidan ko'p bo'lishi mumkin emas.

50. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qarori bilan Bank joylashtirilgan aksiyalarini yiriklashtirish huquqiga ega bo'lib, buning natijasida bankning ikki yoki undan ortiq aksiyasi xuddi shu turdag'i bitta yangi aksiyaga ayrboshlanadi. Bunda Bank Ustaviga Bankning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymati va soniga taaluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

51. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qaroriga ko'ra bank joylashtirilgan aksiyalarini maydalashni amalga oshirishga haqli bo'lib, buning natijasida bankning bir aksiyasi xuddi shu turdag'i ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayrboshlanadi. Bunda bank ustaviga bankning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taaluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

52. Bank o'zi joylashtirgan aksiyalarni bank Aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishining Bank Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga muvofiq, joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini sotib olish va ushbu aksiyalarning umumiyligi sonini kamaytirish yo'li bilan, shuningdek ularni Ustav kapitalini kamaytirish va keyinchalik bank Kengashi qarori bilan belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida sotib olishga haqli.

53. Aksiyalarni sotib olish to'g'risidagi qarorda sotib olinadigan aksiyalarning turlari, Bank oladigan har bir turdag'i aksiyalar soni, sotib olish narxi, aksiyalarning narxini to'lash shakli va muddati, shuningdek aksiyalar sotib olinadigan muddat ko'rsatiladi.

54. Bank aksiyalarini sotib olish paytida ular uchun to'lov pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi.

55. Bank tomonidan oddiy aksiyalarni sotib olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi. Bank tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqilmaydi.

56. Keyinchalik qayta sotish maqsadida Bank tasarrufiga o'tgan aksiyalar Bank tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay sotilishi kerak, aks holda Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi Bankning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda sotilmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

57. Bank qonun hujjalariiga va Ustavga muvofiq korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish huquqiga ega.

Bankning korporativ obligatsiyalari Bank aksiyalariga ayrboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

58. Bank tomonidan korporativ obligatsiyalarni, shu jumladan aksiyalarga ayrboshlanadigan obligatsiyalarni chiqarish amaldagi qonunchilikka va obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorga muvofiq ochiq yoki yopiq tartibda Bank Kengashi qarori bilan, bankning o'z mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

59. Bankning o'z mablag'lari Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira fondi, taqsimlanmagan foya va Aksiyadorlar umumiylig'i yig'ilishining qaroriga muvofiq foya hisobidan shakllantiriladigan boshqa mablag'lardan iborat.

60. Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uchun Bank zaxira fondini va boshqa fondlarni yaratishi mumkin. Ushbu mablag'lar mazkur Ustav va Bank Kengashi qarori asosida sof foya hisobidan yaratiladi va Aksiyadorlarning umumiylig'i yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

61. Zaxira fondi Bank Aksiyadorlari umumiylig'i yig'ilishining qarori asosida har yili sof foydadan ajratiladigan mablag'lar hisobidan bank Ustav kapitalining kamida 15 foizi miqdorida shakllantiriladi. Zaxira fondi Bank Ustav kapitalining 15 foiziga yetguniga qadar yillik badal miqdori sof foydaning kamida 5 foizini tashkil qilishi kerak.

62. Bankning zaxira fondi boshqa mablag'lar bo'lmagan taqdirda, bankning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va qonun hujjalarda belgilangan hollarda Bank aksiyalarini qayta sotib olishda Bank zararlarini qoplash uchun mo'ljallangan. Bankning zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

63. Kreditlar, lizing, boshqa aktivlar va balansdan tashqari majburiyatlar bo'yicha ehtimoliy zararlar uchun zaxiralarni Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va ichki hujjalarni tomonidan belgilangan tartibda shakllantiradi. Ushbu zaxiralarga ajratmalar Bankning joriy xarajatlariga kiritiladi.

VI. AKSIYADORLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

64. Bank aksiyadorlari quyidagi huquqlarga ega:

64.1. Bank aksiyadorlari reestriga kiritilish va o'ziga nisbatan depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;

64.2. Qonun va bankning ichki hujjalarda nazarda tutilgan tartibda Bank aksiyalari bo'yicha dividendlar olish;

64.3. Aksiyadorlarning umumiylig'i shaxsan yoki vakil orqali ishtirok etish, istalgan vaqtida o'zining vakilini almashtirish;

64.4. Bank tugatilgan taqdirda, Bank mulkining bir qismini unga tegishli bo'lgan bank aksiyalarining soni va turiga muvofiq olish;

64.5. Aksiyadorlar ushbu Ustavda ko'zda tutilgan va amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham egadirlar.

65. Barcha aksiyadorlarga, ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, teng munosabatda bo'lish ta'minlanadi.

66. Bankning har bir oddiy aksiyasi uning egasiga aylangan aksiyadorga xuddi shunday huquqlarni beradi. Oddiy aksiyalar egalari Aksiyadorlarning

umumiylig'ishida ushbu yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishlari mumkin.

67. Bankning barcha aksiyalari egalarining ismi yozilgan, hujjatsiz aksiyalardir. Oddiy aksiyalar egalari Aksiyadorlarning umumiylig'ishida ovoz berish huquqiga ega.

68. Hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiz ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo'lgan aksiyadorlar (aksiyador), moliyaviy yil tugaganidan keyin 92 (to'qson ikki) kalendar kundan kech bo'limgan muddatda yillik umumiylig'ishning kun tartibiga takliflarni kiritish hamda bank Kengashiga tegishli organning miqdorini tarkibidan ortiq bo'limgan miqdorda nomzodlarni ko'rsatish huquqiga ega, Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zolariga nomzodlar ko'rsatish bundan mustasno.

69. Aksiyadorlar Bank Kengashi a'zoligiga nomzodlarni ilgari surishda Korporativ boshqaruv kodeksining bank Ustavida nazarda tutilgan Kuzatuv Kengashi a'zolari tarkibiga kamida bitta (lekin Bank Ustavida nazarda tutilgan Kuzatuv Kengashi tarkibining kamida 15 foizi miqdorida) mustaqil a'zo(lar)ni kiritish to'g'risidagi tavsiyalariga amal qilishlari lozim.

70. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiylig'ishida bankni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiylig'ishida bank ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar, shu jumladan avvalgi navbatdagi umumiylig'ishda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatilish qiymatini to'lash navbatli bo'yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

71. Imtiyozli aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar Aksiyadorlarning umumiylig'ishida imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni qisman to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning oldingi yillik umumiylig'ishidan keyingi yig'ilishdan boshlab aksiyadorlarning umumiylig'ishi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etish huquqiga ega. Imtiyozli aksiyalarga ega bo'lgan aksiyadorlarning Aksiyadorlarning umumiylig'ishida ishtirok etish huquqi ushbu aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq hajmda to'langan paytdan boshlab to'xtatiladi.

72. Bankning imtiyozli aksiyalari ularning egasi bo'lgan aksiyadorga bir xil hajmdagi huquqlarni beradi va oddiy aksiyalar bilan bir xil nominal qiymatga ega. Imtiyozli aksiyalar egalari Bank tugatilishi vaqtida ushbu Ustavda belgilangan dividendlar va aksiyalarga investitsiya qilingan mablag'lar nominal qiymatiga nisbatan foizni ularning nominal qiymatidan past bo'limgan tugatish qiymatida olish huquqiga ega.

73. Bank aksiyadorlarining majburiyatları:

73.1. aksiyalar uchun mablag'larni belgilangan tartibda, miqdorda va o'z vaqtida kiritish;

73.2. bank yoki tijorat sirini tashkil etuvchi axborotni, shuningdek bankning boshqa maxfiy hujjatlari (ma'lumotlari) mazmunini oshkor qilmaslik;

73.3. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga rioya etilishini ta'minlash, Bank tomonidan so'rالgan tegishli ma'lumotlarni taqdim etish;

73.4. aksiyadorlarga amaldagi qonun hujjalarda va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanadi.

74. Aksiyalar uchun mablag'lar o'z vaqtida kiritilmagan taqdirda, aksiyador belgilangan tartibda aksiyadorlar ro'yxatidan chiqariladi.

VII. MINORITAR AKSIYADORLAR

75. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida bankda minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tuziladi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolari soni kamida uch kishidan iborat bo'lishi lozim.

76. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida hozir bo'lган, bank Kuzatuv Kengashiga nomzodlarni ilgari surmagan yoki aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiyligi yig'ilishida Kuzatuv Kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

77. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasiga bank direktori, boshqaruvi a'zolari, shuningdek bank Kuzatuv Kengashiga saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

78. Quyidagilar minoritar aksiyadorlar qo'mitasi vakolatlari kira:

78.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi yoki bank Kuzatuv Kengashi tomonidan ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan bog'liq shaxslar bilan yirik bitimlar va bitimlar tuzish bilan bog'liq masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

78.2. minoritar aksiyadorlarning ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

78.3. qonun hujjalari va bank ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

79. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining yig'ilishlari, agar ularda uning miqdoriy tarkibidan saylangan shaxslarning kamida to'rtadan uch qismi ishtirok etsa, huquqiy vakolatlarga ega bo'ladi.

80. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida hisobot beradi.

81. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolari tomonidan uning a'zolari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

82. Bankning minoritar aksiyadorlari hujjalarni asossiz talab qilish va maxfiy ma'lumotlar, tijorat sirlaridan foydalanish orqali Bank boshqaruv organi faoliyatiga aralashmasligi lozim.

VIII. DIVIDENDLAR

83. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlarni to'lash (joriy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra), dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida, bank Kuzatuv Kengashi tavsiyasi hamda moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi bo'yicha

auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan holda qabul qilinadi. Dividendlar miqdori Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'la olmaydi.

84. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi aksiyalarning ayrim turlari bo'yicha dividendlarni to'lamaslik, shuningdek dividend miqdori ushbu Ustavda belgilangan imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'liq bo'limgan miqdorda to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir. Dividendlarni to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlarni to'lashning boshlanish va tugash sanalari ko'rsatilishi kerak.

85. Dividendlar bankning ixtiyorida qolgan sof foyda va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar bankning shu maqsadda maxsus mo'ljallangan mablag'lari hisobidan ham to'lanishi mumkin.

86. Aksiyadorlarga dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Bank aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishi uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reestridda ro'yxatdan o'tgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividendlar olish huquqiga ega.

87. Egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalarning egalari, Bank foyda olish yoki olmasligidan qat'i nazar, aksiya nominal qiymatining 20 foizi miqdorida imtiyozli tarzda dividendlar olish huquqiga ega. Ushbu miqdor bankning oldingi yilgi moliyaviy natijalariga ko'ra Bank aksiyadorlarining qarori asosida qisman to'lanishi yoki to'lanmasligi mumkin. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo'limgan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar jamiyat tomonidan jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin.

88. Bank tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlar olish bo'yicha teng huquqlariga rivoja qilgan holda amalga oshiriladi.

89. Dividendlarni to'lash muddati bunday qaror qabul qilingan kundan boshlab oltmis kundan kech bo'lmasligi lozim.

90. Bankning aybi bilan dividendlar aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda to'lanmagan (olinmagan) taqdirda, to'lanmagan (olinmagan) dividendlar uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalash stavkasidan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi.

91. Dividendlarni to'lash tartibi "Turonbank" ATB Dividend siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

92. Quyidagi hollarda Bank aksiyadorlarga dividendlar, shuningdek Bank Kuzatuv Kengashi, Boshqaruvi a'zolari va bank xodimlariga haq to'lash yo'li bilan foydani taqsimlashga haqli emas:

92.1. prudensial me'yordarning Markaziy Bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq emasligi yoki ushbu taqsimlash natijasida ularning buzilishi;

92.2. nochorlik (bankrotlik) bo'lganda yoki mazkur taqsimlash oqibatida nochorlikning (bankrotlikning) alomatlari yuzaga kelganda;

92.3. Markaziy bankning ijro uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmasida belgilangan, shu jumladan axborotni oshkor qilish bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etmaslik yoki bartaraf eta olmaslik holatlarida;

92.4. Agar Markaziy bankning Bankka nisbatan foydani taqsimlamaslik to'g'risidagi talabi bo'lsa.

93. Bank quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligidini olishi kerak:

93.1. bank tomonidan aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlar, Bank Kuzatuv Kengashi, Boshqaruvi a'zolari va bank xodimlariga to'lanadigan ish haqining umumiyligi miqdori Bank o'z kapitalining o'n foizidan ortiq bo'lgan hollarda;

93.2. agar joriy yoki oldingi chorakda va (yoki) moliyaviy yilda zarar ko'rilgan bo'lsa.

94. Bank O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritadi va moliyaviy hisobotlarni taqdim etadi.

95. Bank Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan yillik moliyaviy hisobotni Aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan kundan kamida ikki hafta oldin, Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi audit o'tkazilgandan keyin e'lon qilishi shart.

96. Bankning moliyaviy yili 1-yanvarda boshlanadi va 31-dekabrda tugaydi.

IX. BANK BOSHQARUVI ORGANLARI

97. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi, Bank Kengashi va Bank Boshqaruvi bankning Boshqaruv organlari hisoblanadi.

98. Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi a'zoligiga benuqson ishbilarmonlik obro'siga, bank risklarini samarali boshqarishni ta'minlash, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan tajriba, bilim va ko'nikmalarga ega jismoniy shaxslar saylanadi.

99. Bank uning Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi a'zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga doimiy ravishda muvofiq bo'lishini ta'minlashi shart.

100. Bankning Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi a'zoligiga, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarning lavozimlariga nomzodlar lavozimga kirishishlaridan oldin Markaziy Bank bilan kelishib olinadi.

Agar obyektiv sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega xodimlarni oldindan kelishib olishning imkon bo'lmasa, Bank keyinchalik rozilik olish uchun so'rov yuborishi kerak.

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi

101. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi (bundan buyon – "Umumiyligi yig'ilishi" deb yuritiladi) Bankning oliy boshqaruv organi – aksiyadorlarning forumi bo'lib, uning doirasida ular aksiyalarga bo'lgan huquqlarini amalga oshiradilar.

102. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

102.1. Bank Ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Bank Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash;

102.2. Bankni qayta tashkil etish yoki tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

102.3. Bank Kuzatuv Kengashining o'z vakolatiga kiramagan masalalar, shu jumladan Bank boshqaruv sohasidagi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risidagi hisobotlarini eshitish;

102.4. Bank Kuzatuv Kengashi va minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining sonini belgilash va a'zolarini saylash, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

102.5. E'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

102.6. Bank Ustav kapitalini kamaytirish;

102.7. O'z aksiyalarini olish;

102.8. Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

102.9. Bankning yillik hisobotini tasdiqlash, uning foydasi va zararlarini taqsimlash;

102.10. Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda Bankni o'rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishning aniq muddatlari ko'rsatilgan strategiyasini tasdiqlash;

102.11. Majbuliy audit o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilot xizmatlari uchun to'loving eng ko'p miqdorini belgilash va u bilan shartnomaga tuzish to'g'risida qaror qabul qilish (shartnomani bekor qilish);

102.12. Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi reglament va Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash;

102.13. Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

102.14. Kreditlash, aktivlar va passivlarni boshqarish, investitsiyalarni amalga oshirish va Bank mijozlariga yangi xizmat turlarini taqdim etish sohasidagi Bank siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;

102.15. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining 50 foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

102.16. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining 15 foizidan 50 foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror bank Kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinmagan holda bank Kengashi qaroriga muvofiq umumiy yig'ilish hukmiga havola etilgan taqdirda, yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

102.17. Bank tomonidan xayriya (homiylilik) yoki beg'araz yordam ko'rsatilishining chegarasini belgilash;

102.18. Bank Kuzatuv Kengashi a'zolarining fuqarolik javobgarligini sug'ortalash maqsadida sug'urta limitlarining eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

102.19. Amaldagi qonunchilik hujjalarda va mazkur Ustavda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

103. Yillik umumiy yig'ilish yiliga bir marotaba moliyaviy yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Yillik umumiy yig'ilishlar oraliq'ida Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari chaqirilishi va o'tkazilishi mumkin.

104. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliyaviy yil tugaganidan keyin 6 oy ichida (30-iyungacha) o'tkaziladi.

105. Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan o'z tashabbusi bilan yoki aksiyadorlar va qonun hujjalarda nazarda tutilgan shaxslarning talabiga ko'ra chaqiriladi. Kuzatuv Kengashining qarori va aksiyadorlarning bo'lajak umumiy yig'ilishi kun tartibini shakllantirish Kuzatuv Kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq Kuzatuv

Kengashining bevosita (shaxsan) (ovoza qo'yilgan masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilishda birgalikda ishtirok etish) o'tkaziladigan yig'ilishida qabul qilinishi kerak.

106. Hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiz ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo'lgan aksiyadorlar (aksiyador), moliyaviy yil tugaganidan keyin 92 (to'qson ikki) kalendar kundan kech bo'limgan muddatda yillik umumiy yig'ilishning kun tartibiga takliflarni kiritish hamda bank Kengashiga tegishli organning miqdoriy tarkibidan ortiq bo'limgan miqdorda nomzodlarni ko'rsatish huquqiga ega, Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zolariga nomzodlar ko'rsatish bundan mustasno.

107. Aksiyadorlar (aksiyador) Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi to'g'risidagi xabarnoma e'lon qilingan kundan e'tiboran uch ish kundan kechiktirmay bank Kuzatuv Kengashiga saylash uchun o'zлari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

108. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, aksiyadorlarni yig'ilish to'g'risida xabardor qilish tartibi, ovoz berish byulletenlari shakli va matni, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etiladigan materiallar (ma'lumotlar) ro'yxati Kuzatuv Kengashi tomonidan belgilanadi.

109. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yig'ilish kun tartibiga kiritilmagan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek uni o'tkazish davomida kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

110. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidan o'n kun oldin, bank Kuzatuv Kengashining tegishli qarori bilan, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida aksiyadorlarga majburiy ravishda xabardor qilingan holda yo'l qo'yiladi, o'zgartish va qo'shimchalar korporativ axborotlar yagona portalida, bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

111. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibidagi masala uning kun tartibiga qo'yilishi sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda taqdim etiladi.

112. Kuzatuv Kengashiga nomzodlarni ilgari surish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'z nomzodi ilgari surilgan taqdirda, nomzodning nomi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod Bank aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodlarni ilgari surayotgan aksiyadorlarning ismlari (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlardan qabul qilingan takliflarning Kuzatuv Kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi tartibi "Turonbank" ATB aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizom" bilan belgilanadi.

113. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kuzatuv Kengashi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra yoki yozma talabnama taqdim etilgan sanaga bankning ovoz beruvchi aksiyalari kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning yozma talabi asosida o'tkaziladi.

114. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini bankning ovoz beruvchi aksiyalari kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar)ning yozma talabiga ko'ra chaqirish Aksiyadorlarning navbatdan

tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi yozma talabnomasi taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

115. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabnomada yig'ilish kun tartibiga kiritiladigan masalalar ularning kiritilish sabablari ko'rsatilgan holda bayon etilishi kerak.

116. Bank Kuzatuv Kengashi Bankning ovoz beruvchi aksiyalari kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar)ning talabiga binoan chaqiriladigan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibida masalalarning qo'yilishiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

117. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyador (aksiyadorlar)dan kelib tushgan taqdirda, bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar)ning familiyasi, ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilishi shart.

118. Bankning ovoz beruvchi aksiyalari kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar)ning Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi yozma talabi taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida Bank Kuzatuv Kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish yoki uni chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

119. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizomda nazarda tutilgan hollarda bankning ovoz beruvchi aksiyalari kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar)ning talabiga ko'ra Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilinishi mumkin.

120. Bank Kuzatuv Kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori yig'ilishni chaqirishni talab qilgan shaxslarga u qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kundan kechiktirmay yuboriladi.

121. Bank Kuzatuv Kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

122. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish tugagan paytga qadar bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalari umumiy sonining 50 foizdan ortiq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatlari (kvorum yig'ilgan) deb hisoblanadi.

123. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi uchun kvorum yig'ilmagan taqdirda, Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

124. Agar o'tkazilmagan yig'ilish o'rning qayta chaqirilgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ishtirokchilarini ro'yxatga olish tugagan vaqtga joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalar umumiy miqdorining 40 foizidan ko'p ovozga ega bo'lgan Bank aksiyadorlari (ularning vakillari) ro'yxatga olingan bo'lsa, ushbu Umumiy yig'ilish vakolatlari hisoblanadi.

125. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan bank aksiyadorlari reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan bankning oddiy va imtiyozli aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga egadirlar. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun hujjatlariga muvofiq bunday kun tartibining har bir tegishli masalasi bo'yicha qaror qabul qilish uchun ovoz beruvchi deb tan olingen Bank aksiyalariga ega aksiyadorlarga beriladi.

126. Ishtirok etish huquqi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish, materiallarni olish va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibidagi materiallardan foydalanish imkoniyati, savollar berish va kun tartibidagi masalalar bo'yicha nutq so'zlash huquqini anglatadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi, aksiyalarning turidan qat'i nazar, bankning barcha aksiyadorlariga tegishli.

127. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish yoki ishtirok etish va ovoz berish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxati Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan Bank aksiyadorlari reestri ma'lumotlari asosida tuziladi.

128. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Vakilning ishonchnomasida vakilga vakolatlar faqat ishtirok etish yoki, ovoz beruvchi aksiyalarga nisbatan, kun tartibidagi masalalar bo'yicha ishtirok etish yoki ishtirok etish va ovoz berish uchun berilgani aniq ko'rsatilishi kerak.

129. Bank aksiyadorlari axborot texnologiyalaridan masofadan foydalangan holda bevosa (shaxsan) o'tkaziladigan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida konferens-aloqa (virtual konferensiya) yoki Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining barcha aksiyadorlariga bir-birlarini eshitish va suhbatlashish imkonini beradigan boshqa aloqa vositalari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.

130. Aksiyadorlar Kuzatuv Kengashi a'zolarini ilgari surish va saylash, masalalarini umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritish to'g'risidagi takliflarni yo'llash va uning korporativ boshqaruvini takomillashtirish maqsadida ishonchnoma talab qilmasdan bevosa Bank bilan muhokamalar o'tkazishda o'zaro hamkorlik qilishi va o'z harakatlarini muvofiqlashtirishi mumkin.

131. Bank aksiyadorlari, shu jumladan umumiy songa nisbatan kichik aksiyalar paketlariga egalik qilishlari mumkin bo'lgan minoritar aksiyadorlar ovoz berish paytida qo'shma pozitsiyani shakllantirish uchun aksiyadorlik kelishuvini tuzishga haqlidirlar, bu ularga birgalikda harakat qilishga imkon beradi va shu bilan ularni amalda ko'pchilikka yoki hech bo'Imaganda aksiyadorlarning eng yirik yagona blokiga aylantiradi.

Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin

132. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqi kun tartibidagi har bir alohida masala bo'yicha ovoz beruvchi aksiyalar egalarigagina tegishli. Bankning barcha oddiy aksiyalari ovoz beruvchi aksiyalardir. Bank imtiyozli aksiyalarining ovoz beruvchi toifaga mansubligi "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun va Bank Ustaviga muvofiq belgilanadi.

133. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida bankni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida bank ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar, shu jumladan avvalgi navbatdagi umumiyligi yig'ilishda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatilish qiymatini to'lash navbatli bo'yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

134. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar, dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni qisman to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida o'z vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etish huquqiga egadir. Imtiyozli aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish huquqi ushbu aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marotaba to'liq to'langan vaqtadan e'tiboran to'xtatiladi.

135. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibidagi masalalar yuzasidan materiallar ushbu masalalar bo'yicha asoslantirilgan qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

136. Agar Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga Bank Kuzatuv Kengashini saylash (Bank Kuzatuv Kengashining yangi a'zosini saylash) masalasi kiritilgan bo'lsa, materiallarda Bank Kuzatuv Kengashiga taklif etilayotgan nomzod qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki u Bankning mustaqil a'zo lavozimiga nomzodmi yoki yo'qmi ekanligi ko'rsatilishi kerak. Agar Bank Kuzatuv Kengashiga nomzod aksiyador yoki Bank aksiyadori bo'Imagan jismoniy shaxs bo'lsa, unda ushbu ma'lumotlar materiallarda aksiyadorning aksiyadorlar ro'yxati shakllantirilishi sanasiga Bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik huquqi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan holda ko'rsatilishi kerak.

137. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha materiallar Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan kundan kamida 10 (o'n) kun oldin aksiyadorlar tanishib chiqishlari uchun Bank Boshqaruvi joylashgan joyda tayyor va mavjud bo'lishi kerak, aksiyadordan so'rov kelib tushgan hollarda esa materiallar unga so'rov olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida yuborilishi lozim.

138. Aksiyadorlarni Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish, ovoz berish byulletenlarini tarqatish va kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovozlarni sanash uchun Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuziladi. Uning shaxsiy tarkibi va funksiyalari aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

139. Sanoq komissiyasi kamida uch kishidan iborat bo'lishi kerak. Sanoq komissiyasiga Bank Kuzatuv Kengashi a'zolari, Bank Boshqaruvi a'zolari, shuningdek ushbu lavozimlarga ilgari surilgan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

140. Sanoq komissiyasi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovoz berish uchun to'ldirilgan byulletenlardagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

141. Ovoz berish natijalariga ko'ra aksiyadorlar yig'ilishining sanoq komissiyasi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomma tuzadi va imzolaydi. Agar aksiyador ovozga qo'yilgan masala bo'yicha alohida fikrga ega bo'lsa, sanoq komissiyasi tegishli yozuvni bayonnomaga kiritishi shart.

142. Ovoz berish natijalari to'g'risidagi bayonnomma tuzilib, imzolanganidan keyin bayonnomma tuzilishi uchun asos bo'lgan to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari (shu jumladan haqiqiy emas deb topilganlari) bayonnomma bilan birga tikiladi va Bank arxivida saqlanadi. Bank umumiyligi yig'ilishda ishtirok etuvchi shaxsga u to'ldirgan ovoz berish byulletenining nusxasini ushbu shaxs hisobidan olishga ruxsat beradi.

143. Ovoz berish natijalari bayonnomasi Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasiga ilova qilinadi.

144. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini Bank Kuzatuv Kengashi raisi boshqaradi (raislik qiladi), agar uzrli sabablarga ko'ra uning ishtirok etishi mumkin bo'lmasa, bu vazifani Bank Kuzatuv Kengashi a'zolaridan biri o'z zimmasiga oladi. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi raisiga audio- va video yozuvlarni amalga oshirish va aksiyadorlar yig'ilishini Internet orqali efirga uzatish huquqi beriladi.

145. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi raisi yig'ilish o'tkazilishini ta'minlaydigan yig'ilish prezidiumiga rahbarlik qiladi va buning uchun u o'z vazifalarini tegishli tartibda bajarish uchun zarur bo'lgan barcha vakolatlarga ega bo'ladi.

146. Umumiyligi yig'ilishi raisi Majlisning olib borilishiga boshchilik qiladi, umumiyligi yig'ilishi ishchi organlarining ishini muvofiqlashadiradi, uning reglamenti asosida o'tkazilishini ta'minlaydi, yig'ilishni o'tkazish va ovoz berish paytida tushuntirishlar beradi, umumiyligi yig'ilishni o'tkazish paytida tartibni ta'minlaydi va nazorat qiladi.

147. Umumiyligi yig'ilishi raisi Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi va qarorini imzolaydi.

148. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish vaqtida uning raisi ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha munozarani tugatish to'g'risidagi taklifni ovozga qo'yishga haqli.

149. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi raisi kun tartibidagi masalani muhokama qilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning so'zga chiqishlariga to'sqinlik qilishga haqli emas, bunday nutqlar Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi reglamenti buzilishiga olib keladigan yoki ushbu masala bo'yicha munozaralar tugatilgan hollar bundan mustasno.

150. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar muhokama qilinayotgan masala bo'yicha asosiy prinsip, ya'ni har bir ishtirokchining Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida belgilangan doirada va ushbu masala bo'yicha faqat bir marta nutq so'zlash huquqididan foydalanishi mumkinligiga asoslanib hal etiladi.

151. Aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishida Kuzatuv Kengashi va Bank Boshqaruvi to'langan kompensatsiya va rag'batlantirishlar miqdori, shuningdek sof foydani taqsimlash tartibi va dividendlarni to'lash uchun ajratilgan mablag'lar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni bank tomonidan qabul qilingan "dividend" siyosati asosida baholash uchun to'liq oshkor qiladi (zarur hollarda bankni rivojlantirishga qaratiladigan sof foyda bo'yicha iqtisodiy asoslar va tushuntirishlar beriladi).

152. Kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar ko'rib chiqilganidan va ular bo'yicha qaror qabul qilinganidan so'ng, sanoq komissiyasi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovoz berish natijalarini e'lon qiladi va tasdiqlaydi (ba'zi masalalar bo'yicha ovoz berish natijalari ilgari Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi jarayonida e'lon qilingan va tasdiqlanganligini e'lon qilgan holda), shundan so'ng Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi Raisi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi ishi yakunlanganini e'lon qiladi.

153. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi uning kun tartibidagi barcha masalalar ko'rib chiqilganidan va ular bo'yicha qarorlar qabul qilinganidan keyingina yopiq deb e'lon qilinishi mumkin.

154. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi yopilgandan so'ng o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Ikkala nusxa ham umumiyligi yig'ilish raisi va umumiyligi yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

155. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

155.1. Bank (ijro etuvchi organ)ning to'liq nomi va joylashgan joyi;

155.2. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining sanasi, vaqt va joyi;

155.3. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida taqdim etilgan bankning ovoz beruvchi aksiyalari soni to'g'risidagi ma'lumot;

155.4. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kvorumi;

155.5. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibi;

155.6. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishida ovoz berish tartibi;

155.7. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining raisi (prezidiumi) va kotibi;

155.8. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxslarning nutqlari;

155.9. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibidagi ovozga qo'yilgan har bir masala bo'yicha aksiyadorlarning ovozlari umumiyligi soni;

155.10. Ovozga qo'yilgan masalalar, ular bo'yicha ovoz berish natijalari;

155.11. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar.

156. Bank Korporativ maslahatchisi bir vaqtning o'zida Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kotibi vazifasini bajaradi.

157. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi bayonnomasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'liqligi va aniqligi uchun Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kotibi javobgardir.

158. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi ovoz berish natijalari bayonnomasi, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish, ovoz berish va bayonnomani imzolash huquqi uchun ishonchnomalar bilan birga tikiladi. Ushbu hujjatlar Bank Boshqaruvi tomonidan saqlanishi va aksiyadorlarga ko'rib chiqish uchun istalgan vaqtda taqdim etilishi kerak. Aksiyadordaning talabiga binoan unga Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi bayonnomasi nusxasi beriladi.

159. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishining ovoz berish natijalari aksiyadorlar e'tiboriga o'zbek va rus tillarida ushbu qarorlar qabul qilingan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilish orqali havola qilinadi.

160. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini texnik vositalardan foydalangan holda o'tkazish tartibi "Turonbank" ATB Aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishi to'g'risidagi Nizom" bilan belgilanadi.

Aksiyadorlarning masofaviy ishtirokidagi umumiyligi yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibi

161. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi yig'ilish o'tkaziladigan joyda bevosita ishtirok etmagan holda istalgan vaqtida o'z fikrini bildirish va qaror qabul qilish imkoniyati bilan real vaqt rejimida ishtirok etish hamda kun tartibidagi masalalarни muhokama qilish, shuningdek byulletenning elektron shaklini to'ldirish orqali ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish imkonini beradigan internet tarmog'i orqali masofadan turib (bundan buyon matnda – masofadan turib) o'tkazilishi mumkin.

162. Bank aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishlarini masofadan turib o'tkazish xizmati yig'ilish o'tkazish operatori tomonidan shartnoma asosida taqdim etiladi.

163. Masofaviy umumiyligi yig'ilishga taklif etilganlar Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi jarayonini kuzatishi va materiallar bilan tanishishi mumkin.

164. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishda bevosita bankning o'zida ishtirok etgan aksiyadorlarning ovozlarini masofadan turib ishtirok etgan ishtirokchilarning ovozlariga qo'shiladi va yig'ilishning yakuniy Bayonnomasida aks ettiriladi.

165. Ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorning qonuniy huquqqa egaligi yig'ilish o'tkazish operatori elektron platformasida byulletenlarning elektron shaklidagi imzo bilan tasdiqlanadi.

166. Yig'ilishni o'tkazish operatori – O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadigan yuridik shaxs bo'lib, tadbirlarni masofadan turib onlayn tarzda shaffof o'tkazishni ta'minlash uchun zarur axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ega bo'lishi lozim.

167. Yig'ilishni o'tkazish operatori quyidagilarni ta'minlaydi:

167.1. Bank aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishida masofaviy ishtirok etish uchun jamiyatning ishtirokchilarni yagona OnelD identifikatsiya tizimi orqali aniqlash imkoniyati (<https://id.gov.uz/>);

167.2. ishtirokchilarga onlayn ro'yxatdan o'tish, yig'ilishda qatnashish, elektron ovoz berish byulletenlari orqali onlayn ovoz berish, ovoz berish natijalari bilan tanishish, shuningdek elektron byulletenlar va ovoz berish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'limlar bilan tanishish imkonini beruvchi elektron platformani taqdim etish;

167.3. Bank aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishini o'tkazish vaqtida ovoz berish natijalari to'g'risida real vaqt rejimida ma'lumot olish va aksiyadorlar bilan onlayn muloqot qilish imkoniyati;

167.4. Bank aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishlarini tayyorlash va o'tkazish paytida maxfiylik va axborot xavfsizligi.

168. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida masofadan turib ishtirok etish uchun aksiyador va (yoki) uning ishonchli vakili OnelD yagona identifikatsiya tizimida identifikatsiyadan o'tishi, yig'ilishni o'tkazish operatorining elektron platformasida ro'yxatdan o'tishi (aksiyadorlar yig'ilishda bevosita bankning o'zida ishtirok etgan hollar bundan mustasno) hamda Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi uchun shakllantirilgan va yig'ilishdan uch kun oldin yig'ilishni o'tkazish operatori platformasida joylashtirilgan bank aksiyadorlari reestriga kiritilishi kerak.

169. Bankning buyurtmasiga binoan uning O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hisoblanmish aksiyadorlariga yig'ilish operatori tomonidan shaxsiy

login va parol orqali tizimga alohida kirish huquqi berilishi mumkinki, bu orqali ular yig'ilishlarda ishtirok etishlari va ovoz berishlari mumkin bo'ladi.

170. Yig'ilishda masofadan turib ishtirok etishni istagan vakolatli shaxslar Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishidan besh ish kuni oldin bankka belgilangan tartibda elektron shaklda (PDF formatida) rasmiy lashtirilgan ishonchnomani taqdim etishlari shart.

171. Taqdim etilgan hujjatlarning qonuniyligi va mosligi uchun javobgarlik taqdim etayotgan aksiyadorga yuklatiladi.

172. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida masofadan ishtirok etish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish OneID yagona identifikatsiya tizimida mavjud bo'lgan tasdiqlangan hisob qaydnomasi yordamida amalga oshiriladi.

173. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha masofadan turib ovoz berish imkoniyati to'g'risida xabarnoma yuborish payti umumiyligi yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tishning boshlanish vaqtini hisoblanadi.

174. Yig'ilishni o'tkazish operatorining elektron platformasida byulletenlarning elektron shaklini to'ldirish aksiyadorlar tomonidan Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi paytida ham, oldindan ham amalga oshirilishi mumkin.

175. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish paytida olingan ID-guvohnomaning saqlanishi va undan foydalanish uchun javobgarlik aksiyador zimmasiga yuklatiladi. Aksiyador bank va aksiyadorlarning huquq va manfaatlari buzilishining oldini olish maqsadida o'z ID-tasdig'inining maxfiyligini ta'minlashi shart.

176. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida Kuzatuv Kengashi a'zolari, ijo etuvchi organ rahbari, ichki audit xizmati a'zolari va bankning tashqi auditori, shuningdek kun tartibi bo'yicha ma'ruzachilar va Bank Kuzatuv Kengashining qarori bilan taklif etilgan shaxslar ham masofadan turib ishtirok etishlari mumkin.

177. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnoma, qonun hujjatlari talablariga muvofiq, korporativ axborotlar yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

178. Axborot (materiallar) aksiyadorlarga Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishidan oldin Internet tarmog'ida, ovoz berish va yig'ilishni o'tkazish uchun foydalaniладиган yig'ilishni o'tkazish operatorining elektron platformasida joylashtirish orqali taqdim etiladi.

179. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan aksiyadorlar reestridda ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyadorlar Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sanaga qadar kun tartibidagi masalalarga masofadan turib ovoz berish imkoniyati to'g'risida xabar olgan paytdan e'tiboran kun tartibidagi masalalar bo'yicha ro'yxatdan o'tish va ovoz berish huquqiga egadirlar.

180. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovozga qo'yilgan barcha masalalar bo'yicha ovozlarni sanash yig'ilishdan oldin va yig'ilish davomida to'ldirilgan elektron byulletenlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

181. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi yakunlangach, aksiyadorlar Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi kun tartibidagi har bir masala bo'yicha ovoz berish natijalari va qabul qilingan qarorlar bilan yig'ilishni o'tkazish operatorining elektron platformasida tanishishlari mumkin.

182. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi ovoz berish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bayonnomma yig'ilish raisi va kotibi tomonidan imzolangan qog'oz hujjat shaklida yoki yig'ilish raisining elektron raqamli imzosi bilan imzolangan elektron hujjat shaklida tuzilishi mumkin.

183. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi masofadan turib o'tkazilishi chog'ida ishtirokchilar qonun hujjatlarida belgilangan barcha huquq va majburiyatlarni saqlab qoladilar.

184. Yig'ilishlar materiallarining (hujjatlarining) elektron arxivi ularni o'tkazish natijalariga ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga uch ish kuni mobaynida topshiriladi.

Bank Kuzatuv Kengashi

185. Kuzatuv Kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi va u bilan bog'liq masalalarni hal qiluvchi Bank organi hisoblanadi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiruvchi masalalarni hal qilish bundan mustasno.

186. O'z faoliyatida Kuzatuv Kengashi Bank mansabdor shaxslari va Aksiyadori darajasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini kuzatib boradi va imkon qadar bartaraf etadi, shuningdek Bank mol-mulkidan noqonuniy foydalanish va tuzilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarda suiiste'mol qilish imkoniyatlari va shartlarining oldini olishga va (yoki) ularni butunlay istisno etishga intiladi, shuningdek, Bankda korporativ boshqaruv amaliyotining samaradorligini nazorat qiladi.

187. Bank Kuzatuv Kengashi quyidagi masalalar bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega:

187.1. Bank Ijro etuvchi organining Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotini tinglagach, Bank faoliyatining ustuvor yo'nalişlarini aniqlash;

187.2. Bankning yillik byudjetini (shu jumladan operatsion va kapital xarajatlarni), shuningdek ularga kiritilgan har qanday ahamiyatli o'zgarishlarni tasdiqlash;

187.3. Bank strategiyasi, maqsadlari, biznes-rejalari va byudjetlari asosida samaradorlikni baholash va har qanday zarur tuzatish choralarini ko'rilişini ta'minlash;

187.4. Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

187.5. Bankning rivojlanish strategiyasini belgilash, strategyaning bajarilishini nazorat qilish va uning har yili yangilanishi;

187.6. Bankda xatarlarni boshqarish tizimini tashkil etishning asosiy prinsiplari va yondashuvlarini aniqlash;

187.7. Bank aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari Umumi yig'ilishlarini chaqirish, Umumi yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqt va joyini belgilash;

187.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida xabar berish uchun Bank aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

187.9. Bank Ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Bank Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqish uchun

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etish;

187.10. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy audit tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini aniqlash, uning xizmatlari uchun to'loving eng ko'p miqdorini aniqlash va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

187.11. Mulkning bozor qiymati belgilanishini tashkil etish;

187.12. Bankning ijro etuvchi organini tashkil etish, Boshqaruv Raisi va a'zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

187.13. Korporativ maslahatchini tayinlash va faoliyati tartibini belgilaydigan nizomni tasdiqlash;

187.14. Tarkibiy tuzilmani tashkil etish, xodimlarni tayinlash, yillik ish jadvalini, shuningdek ichki audit xizmati va komplaens-nazorat bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash, shuningdek qonun hujjatlarda belgilangan tartibda Bank hisobotlarini tinglash;

187.15. Bank Boshqaruvi faoliyati bilan bog'liq har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Bank Boshqaruviga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini nazorat qilish. Bank Kengashi a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlaridagina foydalanishlari mumkin;

187.16. Boshqaruv Raisi va a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiya miqdorini aniqlash;

187.17. Aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori, ularni to'lash shakli va tartibi bo'yicha tavsiyalar berish;

187.18. Bankning zaxira va boshqa mablag'lardan foydalanish;

187.19. Bank Boshqaruvi faoliyati tartibini belgilovchi hujjatlarni tasdiqlash;

187.20. Bank filiallari va vakolatxonalarini ochish va tugatish to'g'risida qarorlar qabul qilish, shuningdek ular to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash;

187.21. Bankning shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;

187.22. Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar bo'yicha qonun hujjatlarda nazarda tutilgan tartibda qarorlar qabul qilish;

187.23. Balans qiymati yoki sotib olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanaga bank sof aktivlari miqdorining 15 foizidan 50 foizigacha bo'lgan miqdorni tashkil etuvchi mol-mulkka nisbatan yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

Agar jamiyat Kuzatuv Kengashi yirik bitim tuzish masalasida yakdillikka erishmagan bo'lsa, yirik bitim tuzish masalasi Kuzatuv Kengashining qarori bilan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hukmiga havola etilishi kerak;

187.24. Bankning tijorat va notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni amaldagi Qonunchilik talablariga muvofiq tuzish;

187.25. Yillik hisobotlarni, foya va zararlar to'g'risidagi hisobotlarini Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritish;

187.26. Byudjet va yillik rejani tasdiqlash, Boshqaruv Raisi, ichki audit departamenti, xatarlar va komplaens-nazorat departamenti direktorlarining Bank faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini har chorakda tinglash;

187.27. bank qo'mitalarini tuzish va ular to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash;

187.28. Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni chiqarish va joylashtirish orqali ko'paytirish, shuningdek Bank Ustaviga ustav kapitalini ko'paytirish va bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

187.29. Aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlar uyushgan bozori savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

187.30. Bank tomonidan korporativ obligatsiyalarni, shu jumladan aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorni qabul qilish;

187.31. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

187.32. Bankning korporativ obligatsiyalarini qayta sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

187.33. Bankning shu'ba va tobe tashkilotlarida yirik bitimlar, tuzilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlar, ko'chmas mulkni begonalashtirish bo'yicha bitimlarni tasdiqlash to'g'risida Bankning fikrini belgilash;

187.34. mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, Bank va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlari (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) bo'yicha bitimlarini ma'qullash;

187.35. Bankda korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish va korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, Bankda korporativ boshqaruv amaliyotini nazorat qilish, korporativ boshqaruv siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

187.36. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan belgilangan chegarada xayriya (homiylik) yoki beg'araz yordam ko'rsatish;

187.37. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining bank hisobidan ta'minoti uchun xarajatlarini tasdiqlash (minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tuzilgan holda);

187.38. Xalqaro kredit liniyalarini jaib qilish bilan bog'liq bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

187.39. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va bartaraf etish siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish tartibini belgilash va uning bajarilishini nazorat qilish;

187.40. Kuzatuv Kengashi va Bank Boshqaruvi a'zolarining fuqarolik javobgarligini sug'ortalash to'g'risida qaror qabul qilish hamda sug'urta limitlari va sug'urta kompaniyasini belgilash;

187.41. amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi Bank hisobotini har chorakda kamida bir marta ko'rib chiqish;

187.42. Bankning asosiy (Ustav) faoliyatiga aloqador va aloqador bo'limgan sho'ba korxonalari va filiallari (vakolatxonalari) to'g'risidagi hisobotni har chorakda kamida bir marotaba ko'rib chiqish;

187.43. Korporativ maslahatchini tayinlash, uning mehnat sharoitlari va unga haq to'lashni belgilash, korporativ maslahatchi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

187.44. Ushbu Ustavga, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Bank Kuzatuv Kengashining vakolatlariga taalluqli boshqa masalalarni hal etish.

188. Bank kengashi vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etish Bank Boshqaruviga yuklatilishi mumkin emas.

189. Bank Kuzatuv Kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

189.1. bank Kuzatuv Kengashi yig'ilishida shaxsan ishtirot etish, yig'ilishda muhokama qilinadigan masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirish;

189.2. bank faoliyati natijalari, uning muayyan davrdagi rivojlanish rejalarini to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot olish;

189.3. Kuzatuv Kengashidagi faoliyati, unga yuklatilgan vazifalarni bajarganligi uchun belgilangan tartibda haq olish;

190. Moliyaviy yil yakunlariga ko'ra, kengash a'zosiga moliyaviy natijalarga qarab bir martalik rag'batlantirish (mukofot) to'lovi to'lanishi mumkin.

191. Kuzatuv Kengashi vakolatiga kiradigan masalalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilishda ishtirok etish Kuzatuv Kengashi har qanday a'zosining burchidir.

192. Kuzatuv Kengashi a'zolari Bank imkoniyatlari (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, Bank faoliyati va rejalarini to'g'risidagi ma'lumotlar)dan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishga haqli emas.

193. Bank Kuzatuv Kengashi a'zolarining majburiyatlari:

193.1. o'z xizmat vazifalarini Bank manfaatlari yo'lida halol va samarali tarzda amalga oshirish;

193.2. Boshqaruv tomonidan taqdim etilgan barcha materiallar va hisobotlarni diqqat bilan o'rganib chiqish.

194. Faqat jismoniy shaxslar Kuzatuv Kengashining a'zosi bo'lishi mumkin.

195. Kuzatuv Kengashi 9 (to'qqiz) nafar a'zodan iborat. Kuzatuv Kengashi a'zolari amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq va ushbu Ustavda nazarda tutilgan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadi.

196. Bank Kuzatuv kengashi a'zoligiga ko'rsatilgan nomzodlar lavozimiga kirishishdan oldin Markaziy Bank bilan kelishiladi.

197. Kuzatuv Kengashi a'zolarining ko'pchiligi Bankka bog'liq shaxslar bo'lmasligi kerak, ularning Kuzatuv Kengashidagi a'zoligi bundan mustasno.

198. Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarning mustaqilligini ta'minlash uchun uning tarkibidagi to'rt (4) nafar a'zo mustaqil a'zo bo'lishi lozim, ammo Kuzatuv Kengashiga 6 yillik doimiy a'zolikdan so'ng ular Kuzatuv Kengashidagi mustaqil a'zolik maqomini yo'qotadilar.

199. Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zoligiga nomzodlar bank Kuzatuv Kengashi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun, qoida tariqasida, tanlov asosida ilgari suriladi.

200. Quyidagilar Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

200.1. so'nggi uch yil davomida bankda va (yoki) bank bilan bog'liq shaxslarda ishlagan shaxs;

200.2. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ko'p foiziga egalik qiluvchi aksiyador (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) bog'liq shaxslar orqali);

200.3. Bankning yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi va (yoki) Bank bilan bog'liq shaxs bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ega bo'lgan shaxs. Bunda bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ortiq miqdorda amaldagi shartnomaga mavjud bo'lgan shaxslar yirik mijozlar va yirik yetkazib beruvchilar sifatida tan olinadi;

200.4. so'nggi uch yil ichida Bankka va (yoki) Bank bilan bog'liq shaxslarga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

200.5. olti yil ketma-ket Bank Kuzatuv Kengashi a'zosi bo'lgan shaxs;

200.6. Bank va (yoki) u bilan bog'liq shaxslar bilan biror bir shartnomaga ega bo'lgan shaxs, Kuzatuv Kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq kelishuvlar bundan mustasno;

200.7. hozirda Bankning va (yoki) Bank bilan bog'liq shaxslarning boshqaruvi va ichki nazorat organi a'zosi hisoblanadigan yoki so'nggi uch yil davomida shu lavozimlarda ishlagan shaxs bilan yaqin qarindosh bo'lgan yoxud yaqin munosabatda bo'lgan shaxs (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek, er-xotinning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari);

200.8. davlat boshqaruvi organi yoki davlat korxonasi xodimi bo'lgan shaxs;

200.9. Bank Ustavi yoki umumiylig'i qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga javob bermaydigan shaxs.

201. Bank Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zosi Kuzatuv Kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda qonun hujjatlarida belgilangan teng huquq va majburiyatlarga ega.

202. "Turonbank" ATB Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zolariga nomzodlarni qidirish, tanlash va saylash tartibi va ularga qo'yiladigan talablar "Turonbank" ATB Kuzatuv Kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq belgilanadi.

203. Bank Kuzatuv Kengashi a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni alohida-alohida bank Kuzatuv Kengashiga saylanishi kerak bo'lgan mustaqil va Kuzatuv Kengashining boshqa a'zolari soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tarzda olingen ovozlarni bitta nomzod uchun to'liq hajmda berish yoki ularni ikki yoki undan ortiq nomzodlar orasida taqsimlash huquqiga ega.

204. Kuzatuv Kengashiga saylangan shaxslar cheksiz marotaba qayta saylanishi mumkin (Kuzatuv Kengashi tarkibida mustaqil a'zo maqomini saqlab qolish uchun vaqt cheklovni hisobga olgan holda).

205. Kuzatuv Kengashining yangi tarkibi saylangan Aksiyadorlarning umumiylig'i keyingi birinchi yig'ilishda Bank Kuzatuv Kengashi raisini o'z a'zolari orasidan Kuzatuv Kengashi a'zolari umumiylig'i sonining ko'pchilik ovozi bilan saylaydi.

206. Kuzatuv Kengashi istalgan vaqtida va biron-bir sababga ko'ra Kuzatuv Kengashi raisini qayta saylash huquqiga ega.

207. Kuzatuv Kengashi yangi saylangan a'zolari uchun lavozimga kirishish dasturini va zarur hollarda Kuzatuv Kengashi a'zolarining kasbiy malakasini oshirish dasturini tasdiqlaydi.

208. Birinchi marta saylangan Kuzatuv Kengashi a'zolari lavozimga kirishish dasturini o'tashi shart, bunda Kuzatuv Kengashi a'zolari o'z huquq va majburiyatları, Bank faoliyatining asosiy jihatları va uning ichki me'yoriy hujjatlari bilan tanishadilar.

209. Kuzatuv Kengashi a'zosi quyidagi shartlar asosida o'z vazifalarini bajarishdan ozod etilishi mumkin:

209.1. Kuzatuv Kengashi a'zosining iltimosnomasiga (arizasiga, murojaatiga) ko'ra;

209.2. Kuzatuv Kengashi a'zosi sog'lig'i sababli o'z vazifalarini bajara olmagan taqdirda;

209.3. Kuzatuv Kengashi a'zosi iqtisodiyot sohasidagi yoki davlat tizimiga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda;

209.4. korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilish bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda.

210. Hech bir shaxs o'zining Kuzatuv Kengashiga tayinlanishi, saylanishi va qayta saylanishi bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda ishtirok etmasligi kerak.

211. Kuzatuv Kengashining vakolat muddati Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan Kuzatuv Kengashining yangi tarkibini saylash to'g'risidagi qarori qabul qilingan paytdan boshlab tugaydi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Kuzatuv Kengashining barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlarini o'z tashabbusi bilan, shuningdek Kuzatuv Kengashi a'zosining tashabbusi bilan uning Kuzatuv Kengashiga yozma arizasi asosida muddatidan oldin tugatishi mumkin.

212. Kuzatuv Kengashining bunday a'zosi vakolatlari, agar xabarnomada Kuzatuv Kengashi a'zosining vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan sana ko'rsatilmagan bo'lsa, Kuzatuv Kengashi tomonidan ushbu ariza olingan vaqtadan e'tiboran tugaydi.

213. Kuzatuv Kengashi a'zosining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish to'g'risidagi xabarnomani olish Kuzatuv Kengashining tegishli qarori bilan rasmiylashtiriladi va u ariza olingan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay rasmiylashtirilishi lozim.

214. Agar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan Kuzatuv Kengashining yangi a'zosi saylansa, uning vakolatlari Kuzatuv Kengashining amaldagi tarkibi vakolat muddati tugashi bilan bir vaqtda tugaydi.

215. Kuzatuv Kengashi a'zolarining vakolatlarini tugatish va saylash to'g'risidagi qaror Kuzatuv Kengashi va (yoki) uning har bir a'zosi faoliyatini baholash natijalari bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinishi mumkin.

216. Korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan Kuzatuv Kengashi a'zosini bank Kuzatuv Kengashi tarkibidan chiqarish masalasi Bank aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritiladi. Ushbu masala bank Kuzatuv Kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi va bank Kuzatuv Kengashining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

217. Kuzatuv Kengashining majlislari har chorakda kamida bir marta uning ish rejasi asosida o'tkaziladi. Kuzatuv Kengashining ish tartibi Bank Kuzatuv Kengashi raisi, uning o'rinosi, Kuzatuv Kengashi a'zolari, Bank Boshqaruvi, Bank Boshqaruvi Raisi va Bank auditorining takliflari asosida shakllantiriladi.

218. Kuzatuv Kengashining joriy yil uchun ish rejasiga takliflar 15 yanvargacha kiritiladi.

219. Bank Kuzatuv Kengashining yig'ilishi Kengash Raisi tomonidan o'z tashabbusi bilan Bank Kengashi, Bank Boshqaruvi a'zolari, Bank ichki audit departamenti direkroti, Bankning tashqi auditori va qonunda belgilangan boshqa shaxslarning talabiga binoan chaqiriladi.

220. Bank Kengashi yig'ilishi Bank Ustav kapitalidagi ovoz beruvchi aksiyalarning kamida bir foiziga birgalikda egalik qiluvchi aksiyadorlarning talabiga ko'ra chaqirilishi mumkin.

221. Bank Kuzatuv Kengashining yig'ilishlari bevosita (shaxsan) (ovoza qo'yilgan masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilishda birgalikda ishtirok etish), telefon orqali konferens-aloqa rejimida va/yoki videokonferens-aloqa, sirtdan ovoz berish (so'rov orqali), shuningdek axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda aralash shaklda o'tkaziladi.

222. Belgilangan tartibda tasdiqlangan Kuzatuv Kengashi yig'ilishining kun tartibidagi masalalar yuzasidan ovoz berish quyidagi yo'llar bilan qabul qilinadi:

222.1. bevosita ovoz berish yo'li bilan;

222.2. aralash ovoz berish yo'li bilan. Ovoz berishning ushbu shakli Kuzatuv Kengashining bir yoki bir nechta a'zosi Kuzatuv Kengashining yig'ilishida shaxsan yoki masofadan turib, texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda qatnasha olmagan hollarda qo'llaniladi va ular o'z fikrlarini yozma ravishda taqdim etadilar.

223. Kuzatuv Kengashi yig'ilishi masofadan turib ishtirok etish imkoniyati bilan yoki aralash shaklda o'tkazilgan taqdirda, shuningdek Kuzatuv Kengashi a'zolaridan biri Kuzatuv Kengashi yig'ilishida shaxsan ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'limgan va masofadan turib ishtirok etishni rejalashtirgan taqdirda, Kuzatuv Kengashi kotibi kirish imkoniyati cheklangan virtual konferensiya o'z vaqtida yaratilishini, Kuzatuv Kengashi a'zosining elektron pochta manziliga konferensiyaga ulanish uchun tegishli havolaning unga kirish uchun parol bilan yuborilishini ta'minlaydi.

224. Kuzatuv Kengashi yig'ilishida aloqa texnik vositalaridan foydalangan holda ishtirok etishni rejalashtirayotgan Kuzatuv Kengashining a'zosi Kuzatuv Kengashi kotibini Kuzatuv Kengashi yig'ilishi kunidan kamida ikki kun oldin xabardor qilishi shart.

225. Kuzatuv Kengashi yig'ilishida Kuzatuv Kengashi a'zosining texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya etilgan holda yo'l qo'yiladi:

225.1. Kuzatuv Kengashi majlisiga faqat Bankda qo'llaniladigan maxsus dasturlardan foydalangan holda Kuzatuv Kengashi kotibi(korporativ maslahatchi) tomonidan elektron pochta manziliga taqdim etilgan havola orqali Kuzatuv Kengashi a'zosi vazifalarini bajarish doirasida, hamkorlik qilishda ulanish, shuningdek faqat ushbu elektron pochta manzilidan foydalanish;

225.2. Kuzatuv Kengashi a'zosini identifikatsiyalash va uning masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishini ta'minlash hamda ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha o'z nuqtai-nazari va ovozini real vaqt rejimida ifoda etish imkonini beruvchi virtual konferensiyaga ulanish tezligi va sifatining mavjudligi;

225.3. axborot xavfsizligini ta'minlash, ya'ni Kuzatuv Kengashi yig'ilishini o'tkazish jarayonining maxfiyligini ta'minlaydigan shartlarning mavjudligi, muhokama paytida aytib o'tilgan ma'lumotlar muhofazasi va Bankda himoyalangan ma'lumotlarning oshkor etilishi ehtimolini istisno etuvchi boshqa shartlar.

226. Kuzatuv Kengashining qarorlari yig'ilishda shaxsan hozir bo'lgan yoki texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etgan Kuzatuv Kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan, shuningdek Kuzatuv Kengashining yig'ilishda hozir bo'limgan a'zolari yozma fikrlarini (agar mavjud bo'lsa) inobatga olgan holda qabul qilinadi.

227. Agar Kuzatuv Kengashi a'zosi yig'ilishda shaxsan yoki texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok eta olmasa, u kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma ravishda bildirishga haqlidir, bunda yozma fikrlar quyidagi tartibda inobatga olinadi:

227.1. agar masala bo'yicha yozma fikr yig'ilishdan oldin olingan bo'lsa;

227.2. Kuzatuv Kengashi a'zosi ushbu masala bo'yicha o'z nuqtai-nazarini "Rozi", "Qarshi" yoki "Betaraf" kabi yozma fikrlari bilan qayd etish orqali aniq belgilab qo'yan bo'lsa.

228. Kuzatuv Kengashi Raisi yoki uning vazifalarini (funksiyalarini) bajarayotgan Kuzatuv Kengashi a'zosi bilan kelishilgan holda Kuzatuv Kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish sirdan ovoz berish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Sirdan ovoz berish Kuzatuv Kengashi yig'ilishini o'tkazmasdan amalga oshiriladi.

229. Kuzatuv Kengashi tomonidan sirdan ovoz berish orqali qaror qabul qilish uchun yagona namunadagi byulletenlardan foydalaniladi.

230. Kun tartibi bo'yicha materiallar ilova qilingan holda sirdan ovoz berish uchun ovoz berish byulleteni Kuzatuv Kengashi kotibi tomonidan Kuzatuv Kengashi a'zolariga sirdan ovoz berish uchun berilgan ovozlarni sanash kunidan 7 (yetti) kalendar kundan kechiktirmay uning o'tkazilishi to'g'risida xabardor qilgan holda Kuzatuv Kengashi a'zolariga yuborilishi kerak, basharti Kuzatuv Kengashi Raisi yoki uning vazifalarini (funksiyalarini) bajaruvchi Kuzatuv Kengashi a'zosi tomonidan boshqa muddat kelishilgan bo'lmasa.

231. Sirdan ovoz berish uchun ovoz berish byulleteni kun tartibiga ilova qilingan materiallar bilan Kuzatuv Kengashi a'zolariga elektron aloqa orqali ular tomonidan ilgari korporativ maslahatchiga taqdim etilgan elektron pochta manzillariga yuboriladi.

232. Belgilangan muddatda Kuzatuv Kengashi a'zosi imzolangan saylov byulletenining skanerlangan nusxasini o'zi ilgari korporativ maslahatchiga taqdim etgan tegishli elektron pochta manzilidan sirdan ovoz berish uchun yuborishi, keyinchalik esa tegishli saylov byulletenining asl nusxasini Kuzatuv Kengashi kotibiga yetkazishi shart.

233. Sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan qaror yozma shaklda rasmiylashtirilishi va saylov byulletenlarini qabul qilish tugagan kundan boshlab kechi bilan 3 (uch) ish kuni ichida Kuzatuv Kengashining raisi yoki uning vazifalarini (funksiyalarini) bajargan a'zosi va Kuzatuv Kengashi kotibi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek u quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

233.1. Bank (ijro etuvchi organ)ning to'liq nomi va joylashgan joyi;

233.2. yig'ilishni chaqirgan shaxs (organ)ning nomi;

233.3. sirdan yig'ilish qarorining yozma rasmiylashtirilgan sanasi va joyi;

233.4. sirdan ovoz berishda ishtirok etgan shaxslar haqida ma'lumot;

233.5. qaror qabul qilish uchun kvorumming mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risidagi yozuv;

233.6. yig'ilish kun tartibi;

233.7. Kuzatuv Kengashi har bir a'zosining kun tartibi har bir bandi bo'yicha ovoz berish natijalari aks ettirilgan kun tartibining har bir masalasi bo'yicha ovoz berish natijalari;

233.8. qabul qilingan qarorlar;

233.9. kun tartibidagi masalalar va qabul qilingan qarorlar yuzasidan Kuzatuv Kengashi a'zolarining alohida fikrlari (agar mavjud bo'lsa);

233.10. boshqa ma'lumotlar (agar lozim bo'lsa).

234. Kuzatuv Kengashi tomonidan sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan qaror Kuzatuv Kengashi kotibi tomonidan Kuzatuv Kengashi a'zolariga u imzolangan kundan e'tiboran 20 (yigirma) kalendar kundan kechiktirmay, ushbu

qaror qabul qilinishi uchun asos bo'lgan byulletenlar ilova qilingan holda yuborilishi kerak.

235. Bank Kuzatuv Kengashi yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bank Kuzatuv Kengashi saylangan a'zolari sonining, shu jumladan texnik aloqa vositalari (ya'ni videokonferensiya va telefon konferens-aloqa seansi rejimi)dan foydalanadigan Kuzatuv Kengashi a'zolarini, shuningdek, Kuzatuv Kengashining yig'ilishda hozir bo'lmagan a'zolarini hisobga olgan holda (agar ularning ovozları kun tartibining har bir masalasi bo'yicha yozma ravishda ifodalangan bo'lsa) kamida 75 foizini tashkil etishi lozim.

236. Kvorum mavjud bo'lmagan taqdirda Kuzatuv Kengashining Raisi yoki uning vazifalarini (funksiyalarini) bajarayotgan Kuzatuv Kengashining a'zosi majlis o'tkazilmagan, deb topilganligini e'lon qiladi.

237. Kvorum mavjud bo'lmagan taqdirda, yig'ilish birinchi marotaba chaqirilgan kundan boshlab o'n ish kundan kechiktirmay takroran chaqiriladi.

238. Kuzatuv Kengashi yig'ilishida ushbu yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.

239. Kuzatuv Kengashi yig'ilishida masalalarni hal qilishda Kuzatuv Kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega.

240. Kuzatuv Kengashi a'zosi tomonidan ovoz berish huquqini boshqa shaxsga, shu jumladan Kuzatuv Kengashining boshqa a'zosiga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

241. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv Kengashi Raisi hal qiluvchi ovozdan foydalanish huquqiga ega.

242. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda va Kuzatuv Kengashi Raisi hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanmasa yoki u yig'ilishda hozir bo'limasa, qaror qabul qilinmagan hisoblanadi.

243. Bank manfaatdor bo'lgan bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror uning tuzilishidan manfaatdor bo'lmagan Kuzatuv Kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Agar Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zolardan tashqari barcha a'zolari bunday bitimni amalga oshirishdan manfaatdor bo'lsa, qaror mustaqil a'zolarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

244. Bank tomonidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimni tuzish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi:

244.1. Agar Kuzatuv Kengashining barcha a'zolari manfaatdor tomonlar bo'lsa;

244.2. agar ovoz berishda ishtirok etadigan mustaqil a'zolar soni ikkitadan kam bo'lsa;

244.3. qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ovozlar soni yo'qligi sababli Kuzatuv Kengashi bunday bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin bo'limasa.

245. Bank Kuzatuv Kengashi yig'ilishida bayonnomasi tuziladi, u Kuzatuv Kengashi yig'ilishi o'tkazilganidan keyin 10 kundan kechiktirmay rasmiylashtirilishi kerak.

246. Kuzatuv Kengashi yig'ilishining bayonnomasi Kuzatuv Kengashi kotibi tomonidan yuritiladi. Kuzatuv Kengashi kotibi Kuzatuv Kengashi bayonnomasini bankning maxsus yaratilgan platformasiga Kuzatuv Kengashi a'zolari tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash va imzolash uchun joylashtiradi.

247. Yig'ilish bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

247.1. yig'ilish sanasi, joyi va vaqt;

247.2. yig'ilishda ishtirok etuvchi shaxslar, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yig'ilishda masofadan ishtirok etuvchi shaxslar;

247.3. yig'ilish kun tartibi;

247.4. ovozga qo'yilgan masalalar, ular bo'yicha ovoz berish natijalari;

247.5. qabul qilingan qarorlar.

248. Ovoz berish natijalari bo'yicha Kuzatuv Kengashi yig'ilishining bayonnomasi Kuzatuv Kengashi Raisi yoki uning vazifalarini (funksiyalarini) bajarayotgan Kuzatuv Kengashi a'zosi, yig'ilishda ishtirok etgan Kuzatuv Kengashining barcha a'zolari, shu jumladan texnik aloqa vositalaridan foydalangan a'zolar (videokonferensiya va telefon konferens-aloha seansi rejimida), shuningdek Kuzatuv Kengashi kotibi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolanadi. Majlisda ishtirok etmagan Kuzatuv Kengashi a'zolarining yozma fikr-mulohazalari, agar mavjud bo'lsa, bayonnomaga ilova qilinadi.

249. Kuzatuv Kengashi a'zosining asoslangan talabiga binoan yig'ilish bayonnomasi shaxsan imzo qo'yish shaklida imzolanishi mumkin.

250. Maxsus platformada elektron raqamli imzo bilan imzolangan bayonnomalar qog'ozdagi bayonnomada shaxsan qo'yilgan imzoga teng.

251. Kuzatuv Kengashi kotibi Kuzatuv Kengashi majlislarining stenogrammalarini yuritishga haqlidir.

252. Kuzatuv Kengashi yig'ilishida ishtirok etmagan yoki Kuzatuv Kengashi tomonidan qonun hujjatlarida va Bank Ustavida belgilangan tartibni buzgan holda qabul qilingan qarorga qarshi ovoz bergen Kuzatuv Kengashining a'zosi unga sud tartibida e'tiroz bildirishga haqli.

253. Kuzatuv Kengashi kotibi Kuzatuv Kengashi va Kuzatuv Kengashi qo'mitalarining majlislarini tayyorlash va o'tkazish vazifalarini bajaradi, Kuzatuv Kengashi va uning qo'mitalari yig'ilishlari uchun materiallar shakllantirilishini ta'minlaydi, ulardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi hamda qonun hujjatlari, Ustav va bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradi.

254. Kuzatuv Kengashi kotibi Kuzatuv Kengashi a'zolari va uning qo'mitalari o'z vaqtida va aniq ma'lumot olishlarini ta'minlaydi.

255. Kuzatuv Kengashi kotibining vazifalari hamda Kuzatuv Kengashi faoliyatini va Kuzatuv Kengashining, Bank Raisining aksiyadorlar bilan o'zaro hamkorligini tashkillashtirish bo'yicha boshqa vazifalar Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan Bankning korporativ maslahatchisi to'g'risidagi Nizom asosida korporativ maslahatchi tomonidan amalga oshiriladi.

256. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Kuzatuv Kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun bankda Kuzatuv Kengashining quyidagi masalalar bo'yicha qo'mitalari tashkil etiladi:

256.1. strategik rejalashtirish va investitsiyalar;

256.2. xatarlarni boshqarish;

256.3. tayinlovlar va haq to'lash;

256.4. audit;

256.5. korrupsiyaga qarshi kurash va etika;

257. Qo'mitalar Kuzatuv Kengashi vakolatiga taalluqli Bank faoliyati masalalarini oldindan ko'rib chiqish va shu masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun Kuzatuv Kengashiga tavsiyalar tayyorlash maqsadida tuziladi.

Qo'mitalar bankning boshqaruv organlari hisoblanmaydi va Bank yoki Kuzatuv Kengashi nomidan ish yuritishga haqli emas.

258. Qo'mitalar Kuzatuv Kengashining barcha a'zolari tomonidan ular uchun qonun bilan belgilangan vazifalar bajarilishiga, shuningdek Bank boshqaruv organlari bilan ish yuzasidan o'zaro hamkorlikka ko'maklashadi.

259. Qo'mitalar o'z faoliyatini Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan qo'mita to'g'risidagi nizom asosida amalga oshiradilar.

260. Bank Kuzatuv Kengashi a'zolari Bank faoliyati to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishda xolisona ish tutishlari shart. Ularga berilgan imkoniyatlardan ushbu Ustavning qoidalariga zid holda yoki bankning mulkiy yoki nomulkiy manfaatlariga zid tarzda foydalanish taqiqlanadi. Bank Kuzatuv Kengashi a'zolarining vazifalari va javobgarligi, uning faoliyatini tashkil etish, qarorlar qabul qilishda ovoz berish tartibi "Bank Kuzatuv Kengashi to'g'risidagi Nizom" bilan belgilanadi.

Bank Boshqaruvi

261. Bankning joriy faoliyatini boshqarish kollegial ijroiya organi hisoblanmish Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

262. Bank Boshqaruvi yetti kishidan iborat.

263. Bank Boshqaruvi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

263.1. Bankning kundalik faoliyatini tashkil etish va uni joriy boshqarishni amalga oshirish, Bank Ustavida bayon etilgan maqsad va vazifalarning bajarilishini ta'minlash;

263.2. Kengash tomonidan belgilangan siyosatga rioxqa qilish;

263.3. Bankning tarkibiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, Bankning departamentlari, boshqarmalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalari samarali hamkorligini hamda Bankning shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;

263.4. Bankning ichki me'yoriy hujjatlari (nizomlar, yo'rqnomalari, qoidalar, texnik reglamentlar, uslubiyotlar, tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar va boshqa hujjatlar)ni tasdiqlash, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va Bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan ichki me'yoriy hujjatlar bundan mustasno;

263.5. Bank Ichki audit departamenti tomonidan aniqlangan kamchiliklarni ko'rib chiqish va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;

263.6. Bank faoliyatini boshqarish siyosatini, shu jumladan kredit, investitsiya, emissiya va boshqa siyosatlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritish;

263.7. Bank mijozlariga ko'rsatilgan xizmatlar uchun foiz stavkalari va komission to'lovlar miqdori va tariflarini tasdiqlash;

263.8. Bankda Markaziy Bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarga, Markaziy bankda majburiy zaxiralarni shakllantirish talablariga rioxqa etilishini ta'minlash;

263.9. Bank kapitali va likvid resurslarining yetarlilikini ta'minlash, ularni tasniflash asosida shubhali va likvid aktivlar uchun zaxiralarni yaratish, yo'qotishlar miqdorini kamaytirish maqsadida Bank aktivlari turlarini ko'paytirish;

263.10. Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarish, shuningdek vaqtiga vaqtiga bilan Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishiga va bank Kuzatuv Kengashiga bajarilgan ishlar, choralar va bankka nisbatan sanksiyalar to'g'risida hisobot taqdim etish;

263.11. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va xalqaro standartlarga muvofiq bank hisobi va hisoboti yuritishini tashkil etish;

263.12. Bankning shu'ba korxonalari va qaram xo'jalik jamiyatlari ustidan nazorat, filiallar, bank xizmatlari ofislari va boshqa alohida bo'linmalarni boshqarish, ularning barcha sohalardagi faoliyatini nazorat qilish, Bank uchun xodimlar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish;

263.13. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Bank Kuzatuv Kengashi yig'ilishlarini tashkil etish va ularning qarorlari ijrosini ta'minlash;

263.14. har chorak yakunlari va O'zbekiston Respublikasi Strategik islohotlar agentligi tomonidan ishlab chiqilgan KPI natijalari bo'yicha Boshqaruv yig'ilishlari to'g'risidagi axborotni Kuzatuv Kengashiga taqdim etish;

263.15. Aksiyadorlar, Kuzatuv Kengashi yoki Bank auditorining birinchi talabiga binoan bank faoliyati to'g'risida moliyaviy hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish;

263.16. Manfaatdor shaxslarning amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qonun hujjatlarida belgilangan axborotni olishini, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha barcha aksiyadorlarning huquqlariga rivoja etilishini ta'minlash;

263.17. O'z vakolatlari doirasida xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash masalalarini hal qilish, Bankning yuqori lavozimlariga nomzodlarni tasdiqlash uchun Kuzatuv Kengashiga taqdim etish, Bank xodimlarining bilim, malaka, tajriba va qobiliyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rish;

263.18. Bankning strategik maqsadlarini, korporativ boshqaruv siyosatini, boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan xatarlarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular haqida axborot berish, kapitalning yetarlilikini tegishli darajada saqlash siyosatini amalga oshirish;

263.19. O'z vakolatlari doirasida Bankning normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan mol-mulkni sotib olish yoki sotish masalasini hal qilish;

263.20. Bankning obro'-e'tibor xatarlarini boshqarish;

263.21. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va Bank Kuzatuv Kengashi faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

263.22. Bank xizmatlariga talabni, uning faoliyati yangi yo'nalishlarini rivojlantirish istiqbollarini aniqlash;

263.23. Moliyaviy xizmatlar bozorida Bank harakatlarining taktikasini ishlab chiqish bo'yicha qarorlar qabul qilish;

263.24. Bankning istiqbolli va joriy biznes-rejalarini ishlab chiqish;

263.25. Bankda kerakli ma'lumotlarni uzatish va almashishning samarali tizimini yaratish, u manfaatdor foydalanuvchilarga yetib borishini ta'minlash. Axborot uzatish va almashish tizimi Bank faoliyati siyosati va tartibini belgilovchi barcha hujjatlarni o'z ichiga oladi;

263.26. Bank faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rivoja etilishini ta'minlash;

263.27. Bankda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etishi, zarur holati va haqqoniyligini ta'minlash, yillik hisobotlarni va boshqa moliyaviy hisobotlarni tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etish, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

263.28. Davlat statistika organlariga tegishli hisobotlarning to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

263.29. Bankning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotni uchinchi shaxslarga berish uning majburiyatlari doirasiga kiritilmagan bo'lsa, bunday axborotni saqlash, Bankning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Bank Boshqaruvi tomonidan belgilanadi. Bank xodimlari tomonidan rasmiy yoki tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning xavfsizligi ta'minlanishi;

263.30. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishiga va Bank Kuzatuv Kengashiga uning vakolatlari bilan bog'liq ishlarning holati to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan muddatlarda taqdim etilishini ta'minlash;

263.31. Bankning lozim darajadagi va shaffof tashkiliy tuzilmasini ta'minlash, shu jumladan bank xodimlari o'tasida vakolat va majburiyatlarni ularning vakolatlari doirasida taqsimlash;

263.32. Bank xodimlari faoliyatini nazorat qilish;

263.33. Bank xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya etilishini va ularning mehnati muhofaza qilinishini ta'minlash;

263.34. Jamoa shartnomalari va bitimlarini tuzishda ish beruvchi sifatida qatnashadi va jamoa shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajaradi;

263.35. Bank Boshqaruvi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

264. Qonun hujjatlariga muvofiq Bank Boshqaruvi barcha masalalarni hal etishga vakolatli hisoblanadi, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va Bank Kuzatuv Kengashining vakolatlariga taalluqli masalalar bundan mustasno. Kuzatuv Kengashi Boshqaruv vakolatiga doir masalalarga aralashishga haqli emas.

265. Bank Boshqaruviga Boshqaruv Raisi rahbarlik qiladi. Boshqaruv Raisi Kuzatuv Kengashi oldida javob beradi va o'z vakolatlari doirasida bankning joriy faoliyati natijalari uchun javobgardir. Bank Boshqaruv Raisi Boshqaruv tarkibini shakllantirishda yoki Boshqaruv Raisi lavozimini egallash zarurati tug'ilganda Bank Kuzatuv Kengashining qarori bilan saylanadi.

266. Bank boshqaruvi a'zolari Kuzatuv Kengashining oldindan roziligi bilan boshqa tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlashlari mumkin. Biroq, ularning boshqa Bank va tashkilotlarda o'rindosh bo'lib ishlashi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan hollarda bunday o'rindoshlikka yo'l qo'yilmaydi.

267. Boshqaruv raisi quyidagi vakolatlarga ega:

267.1. O'z vakolatlari doirasida Bankning joriy faoliyatini boshqaradi, uning samarali va barqaror ishlashini ta'minlaydi;

267.2. Foydali bo'lgan iqtisodiy boshqarish metodlarini qo'llaydi, Bank mehnat jamoasining irodasi va tashabbuskorligini namoyon etish uchun sharoit yaratadi;

267.3. Unga berilgan vakolatlar doirasida amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bankning mol-mulki va mablag'larini tasarruf etadi, Bank nomidan shartnomalar, majburiyatlar va ishonchnomalarini imzolaydi;

267.4. O'zbekiston Respublikasi tijorat va davlat tashkilotlarida hamda boshqa davlatlarda bank faoliyati masalalari bo'yicha vakillikni amalga oshiradi;

267.5. Bank nomidan ishonchnoma beradi, shartnomalar, majburiyatlar va bitimlarni imzolash tartibini belgilaydi;

267.6. Bankning shtat jadvalini tasdiqlaydi va unga o'zgartirishlar kiritadi, Bank Boshqaruvi a'zolari o'tasida majburiyatlarni taqsimlaydi. Shtat jadvali va tuzilgan shartnomalar asosida Bank mansabdor shaxslarini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, xodimlarga ish haqini belgilaydi va namunali xodimlarni mukofotlaydi, mehnat majburiyatlarini buzganlik uchun intizomiy jazo choralarini

qo'llaydi, amaldagi qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Bank xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi;

267.7. Bank Boshqaruvi majlislari o'tkazilishini tashkil qiladi, Bank nomidan hujjatlar va Boshqaruv yig'ilishlari bayonnomalarini imzolaydi;

267.8. Mehnat va ijro intizomini qo'llab-quvvatlaydi;

267.9. Barcha bo'ysunuvchi xodimlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

267.10. Boshqaruv Raisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

268. Boshqaruv Raisi surunkasiga ikki muddatdan ortiq tayinlanishi mumkin emas.

269. Boshqaruv Raisi va boshqa a'zolari tanlov asosida 3 yilga Bank Kuzatuv Kengashining qarori bilan tayinlanadi. Bank Boshqaruvi tarkibiga, qoida tariqasida, Boshqaruv Raisi, Boshqaruv Raisining o'rinosarlari va bankning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari kirishi mumkin.

270. Davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organiga axborotlar va ma'lumotlar taqdim etilmaganda yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganda Boshqaruv organi a'zolarini rag'batlantirishga yo'l quyilmaydi.

271. Boshqaruv faoliyatini tashkil etish Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan "Turonbank" ATB Boshqaruvi to'g'risidagi Nizom" bilan tartibga solinadi.

BANKNING KORPORATIV MASLAHATCHISI

272. Korporativ maslahatchi – Bank, uning organlari va mansabdor shaxslari faoliyatida korporativ qonunchilikka riosa etilishini nazorat qiluvchi bank xodimi. Korporativ maslahatchi bankning mansabdor shaxsi (Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqarushi a'zosi) emas. Korporativ maslahatchi Bank Kuzatuv Kengashiga hisobot beradi.

273. Korporativ maslahatchi faoliyati maqsadlari eng yaxshi xalqaro tajribani hisobga olgan holda Bankda korporativ boshqaruv amaliyotini takomillashtirish, aksiyadorlarning huquqlarini samarali himoya qilishga ko'maklashish va Bankning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan boshqaruv amaliyotini keng joriy etishga qaratilgan.

274. Korporativ maslahatchi faoliyatini tashkil etish bank Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan "Turonbank" ATB Korporativ konsultanti to'g'risida"gi Nizom bilan tartibga solinadi.

X. TARKIBIY TUZILMA

275. Bank O'zbekiston Respublikasida filiallar (Bank xizmatlari markazi), Bank xizmatlari ko'rsatish ofislari va boshqa alohida bo'linmalar ochishi mumkin.

276. Bankning filiali (Bank xizmatlari markazi) – Bankning joylashgan joyidan tashqaridagi va uning nomidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyada ko'rsatilgan bank operatsiyalarining hammasini yoki bir qismini amalga oshiruvchi alohida bo'linmasi.

277. Bankning filiallari (Bank xizmatlari markazi) va vakolatxonalari yuridik shaxs maqomini olmagan holda o'z faoliyatini Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiradilar.

278. Filiallar (Bank xizmatlari markazlari) boshqaruvchilari Bank Boshqaruvi Raisi tomonidan tayinlanadi. Filial boshqaruvchisining vakolatlari Bank Boshqaruvi Raisi tomonidan beriladigan ishonchnoma, Bankning Ustavi va ichki me'yoriy hujjatlari bilan belgilanadi. Boshqaruv Raisi Bank nomidan Bank filiallari rahbarlari bilan mehnat shartnomasini tuzadi.

XI. BANK ICHKI AUDIT XIZMATI VA AUDIT

279. Bank Ichki audit departamentini tashkil etadi. Ichki audit departamenti Bank kengashiga va uning huzuridagi Audit qo'mitasiga xisobdordir.

280. Bankning ichki audit departamenti Bankning ijroiya organi, Bank xizmatlar markazlari, Bank xizmatlar ofislari tomonidan qonunchilikga, Bank ustaviga va boshqa xujjatlariga riosa etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq xamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib tamoillariga riosa etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Bankni boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga riosa etilishini tekshirish xamda monitiring olib borish orqali bankning Departamentlari, Bank xizmatlar markazi va bank xizmatlar ofislarini ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

Auditorlik tashkiloti.

281. Mustaqil auditorlik tashkiloti Bank bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda Bank moliva-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

282. Auditorlik tashkiloti Bankning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Bank oldida javobgar bo'ladi.

XII. BANKNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

283. Bankni qayta tashkil etish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qarori asosida amalga oshiriladi. Bankni qayta tashkil etish va tugatishning boshqa asoslari va tartibi amaldagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bank qayta tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsatini olgan taqdirda 30 (o'ttiz) kun ichida o'z kreditorlarini kutilayotan o'zgarishlar to'g'risida bevosita xabardor qiladi va bu haqda tegishli tartibda respublika matbuotida e'lon beradi.

Bankni qayta tashkil etish birlashish, qo'shib olish, bo'linish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

284. Bank faoliyatini tugatish va Bankni tugatish ixtiyoriy yoki majburiy shaklda amalga oshirilishi mumkin.

285. Bank faoliyatini tugatish va Bankni tugatish uchun quyidagilar asos bo'lib hisoblanadi:

286.1. Bank aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishining bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qarori;

287.2. Markaziy bank Boshqaruvining bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qarori.

288. Bankning tugatilishi uning faoliyatini huquq va majburiyatlarni boshqa shaxslarga o'tkazmasdan tugatishga olib keladi.

289. Bank ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda, Bank Kuzatuv Kengashi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida Bankni tugatish va tugatuvchini tayinlash yoki tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

Bank ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi Bankni tugatish va tugatuvchini tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

290. Bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat olish uchun Bank Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan ushbu qaror qabul qilinganidan keyin besh kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ixtiyoriy tugatish uchun ruxsat berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi shart.

291. Markaziy Bank Boshqaruvinining litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori asosida Bankni majburiy tugatish amaldagi qonun hujjatlarida nazarda utilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

292. Tugatuvchi yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinadigan matbuotda Bank tugatilganligi to'g'risida xabarnoma, kreditorlar tomonidan talablarni taqdim etish tartibi va muddatlarini e'lon qiladi.

Kreditorlarning talablarni taqdim etish muddati Bank tugatilganligi e'lon qilingan kundan boshlab ikki oydan kam bo'lmasligi lozim.

293. Bankni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan paytda kreditorlar oldida majburiyatlar mavjud bo'lmasligi taqdirda, bankning mol-mulki ushbu Ustavga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq aksiyadorlar o'rtaida taqsimlanadi.

294. Tugatuvchi kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarini undirish choralarini ko'radi, shuningdek kreditorlarni Bank tugatilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi.

Kreditorlar tomonidan talablarni taqdim etish muddati tugagunga qadar tugatuvchi tugatilayotgan Bank mol-mulkining tarkibi, kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar, shuningdek tugatish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi oraliq tugatish balansini tuzadi.

Oraliq tugatish balansi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

295. Agar tugatish paytida bankda mavjud bo'lган pul mablag'lari kreditorlarning talablarni qondirish uchun yetarli bo'lmasa, tugatuvchi bankning mol-mulkini sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda kim oshdi savdosida sotadi.

296. Bank kreditorlariga pul to'lovlarini tugatuvchi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan oraliq tugatish balansiga muvofiq, u tasdiqlangan kundan boshlab navbatli bilan amalga oshiriladi.

297. Jismoniy shaxslar bo'lgan omonatchilar o'z omonatlarini tugatishdan olingan mablag'lar hisobiga olishda ustuvorlikka ega.

298. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshirilganidan so'ng, tugatuvchi tugatish balansini va Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan hisobotlarni tuzadi.

299. Kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bank aksiyadorlari o'rtaida taqsimlanadi.

300. Tugatishning barcha tartib-taomillari yakunlanganidan so'ng, tugatuvchi Bankning qimmatli qog'ozlarini muomaladan chiqarish va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda Bankning qimmatli qog'ozlari chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni bekor qilish bo'yicha zarur choralarни ko'radi.

301. Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklar reestridan chiqarilgan paytdan e'tiboran tugatilgan deb hisoblanadi.

XIII. BANK USTAVIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

302. Bank Ustaviga kiritiladigan va Bankning vakolatli organi tomonidan tasdiqlanadigan barcha o'zgartish va qo'shimchalar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro'yxatdan o'tkaziladi.

303. Ustavga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar uchinchi shaxslar uchun u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

304. Ushbu Ustav davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab Bank Ustavining avvalgi ro'yxatdan o'tgan barcha tahrirlari, unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

Тикилган ва тақамшаган

68

варажлан иборат

1 афууст 2023 йил

Имзо

